

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
GEOGRAFIYA KAFEDRASI

**“Himoyaga tavsiya etildi”**

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ dots. B.Xo‘jamqulov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil

“5440500 – Geografiya IV - bosqich talabasi Choriyeva  
Zilolaning **“Yangi o‘zlashtirilgan hududlarda dehqonchilik  
tarmog‘i rivojlanishining geografik jihatlari (Quy  
qashqadaryo mintaqasi misolida)”** mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Talaba \_\_\_\_\_ Z.Choriyeva

Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ M.Fayzullayev

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil

**“Himoyaga tavsiya etildi”**

Geografiya kafedrasi mudiri

\_\_\_\_\_ dots. L.N.Erdonov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil

**Qarshi shahri - 2012 yil**

## KIRISH

Dehqonlarimizda yerga egalik hissini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirish natijasida qishloq xo'jaligi sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda. Qishloq mehnatkashlarining dunyoqarashi o'zgarmoqda, ularda tashabbuskorlik, tadbirkorlik, yer hamda suv resurslariga ma'suliyat va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlar yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shubhasiz bugungi kunda qishloq xo'jaligi samaradorligini tubdan oshirish, so'nggi yillarda paxtachilik, g'allachilik va meva sabzavotchilikda mo'l-hosil yetishtirish, ishlab chiqarish hajmlarining o'sishiga chuqur o'ylangan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar asosiy omil bo'ladiganini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Qashqadaryo viloyatini qishloq xo'jalik nuqtai-nazardan rayonlashtirishda hududni tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, jumladan, yer-suv resurslari bilan ta'minlanlik darajasini e'tibor olgan holda Qashqadaryo viloyatini 3 ta qishloq xo'jalik iqtisodiy rayoniga ajratish maqsadga muvofiq.

1. Yuqori Qashqadaryo – Kitob- Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari
2. O'rta Qashqadaryo – Qamashi, Chiroqchi, Dehqonobod, G'uzor
3. Quyi Qashqadaryo-Qarshi, Koson, Nishon, Kasbi, Mirishkor, Muborak.

Quyi Qashqadaryo ma'muriy jihatdan Qarshi, Koson, Nishon, Kasbi, Mirishkor, Muborak tumanlarini o'z ichiga olib, viloyat maydonining 41,2 % ini (11,8 ming kv km) tashkil qiladi. 2011 yil 1 yanvar holati bo'yicha viloyat aholisining 31,7 %i, viloyat jami qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarining 45,9%i, sug'oriladigan yerlarning 31,9 %i, haydaladigan yerlarning 44,5%i Quyi Qashqadaryo mintaqasi hissasiga tegishli bo'lgan. Bu mintaqada aholi mujassamlashuvining pastligi, sug'oriladigan yerlar salmog'ini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yerlarning viloyat ko'rsatkichidan yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan (0,38 gektar). Bu ko'rsatkich viloyat bo'yicha 0,20 gektarni tashkil qiladi.

“Yangi o’zlashtirilgan hududlarda dehqonchilik tarmog’i rivojlanishining geografik jihatlari (Quyi qashqadaryo mintaqasi misolida)” deb nomlangan mazkur

**Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot ob’ektini** mintaqa qishloq xo‘jaligida dehqonchilikning ixtisoslashuvi va uning geografik jihatlari tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi** mintaqa dehqonchilik tarmog’ini rivojlantirishning geografik jihatlari bayon qilish va baholashdan iborat.

### **Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi.**

Prezident Islom Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida – Qishloq xo‘jaligini isloh qilish, fermer xo‘jaliklariga birlashtirilgan yer uchastkalarini optimallashtirish, paxta va g‘allaning xarid narxlarini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida iqtisodiyotimizning agrar sektorida tarkibiy sifat o‘zgarishlari yuz bermoqda. Paxta va g‘alla kabi strategik muhim qishloq xo‘jaligi ekinlari bilan bir qatorda, mevasabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohalarida ham ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o‘ydi, qayta ishlash tarmoqlari va ichki bozorni sut, go‘sht, kartoshka, sabzavot kabi eng muhim oziq-ovqat hamda boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan yanada ko‘proq to‘ldirish uchun mustahkam xomashyo bazasi yaratilmoqda, degan asosli fikrlar aytilgan. Shundan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda qayta ishlash sanoatini mukammal shakllantirishning geografik jihatlari, unga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish juda katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega va bularning barchasi mazkur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

### **Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari:**

- turli xil nazariy yondashuvlar qarashlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'llarini ochib berish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishni muayyan tizimga keltirish;
- Quyi Qashqadaryo mintaqasida qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvining hozirgi holatiga baho berish;
- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida yerdan foydalanishning sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida undan foydalanishning sifat tavsifini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- Quyi Qashqadaryo mintaqasining tabiiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning hududiy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar tayyorlash;

Mazkur BMI ni bajarishda mavzuga doir adabiyotlar va kartografik materiallardan ilmiy va ishlab chiqarish muassasalarida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

BMI Kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

BMI .....sahifadan iborat bo'lib, uning hajmi taqriban so'zdan iborat. Ishga .....jadval, .....chizma va ..... karta, ..... ilova qilindi.

## **I BOB. Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi va hududiy tarkibi**

### ***1.1. Yer fondi va uning tarkibi***

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Yer kodeksi»ga muvofiq yer umummilliy boylik hisoblanadi. Shu sababli hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab undan ilmiy asoslangan holda oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari izchillik bilan amalga oshirilayotgan bugungi kunda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar jumlasiga kiradi.

Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan yer fondi tarkibiga, yer resurslarining yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilar va mulkdorlar o'rtasidagi to'g'ri va oqilona taqsimlanishiga bog'liq.. Shu nuqtai nazardan misolimiz obekti hisoblangan Qashqadaryo viloyati yer fondi va uning tarkibidagi tuzilmaviy o'zgarishlarni tahlil qilish, ularning asosiy va ustivor yo'nalishlarini aniqlash viloyat yer resurslaridan samarali foydalanishda muhim o'rin tutadi.

Yer fondini turli guruhlariga ajratib o'rganish mumkin. Xususan qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan yer fondi tarkibini quyidagi belgilari boyicha o'rganish maqsadga muvofiq;

belgilangan maqsadga ko'ra;

sifat holatiga ko'ra;

ma'muriy – hududiy bo'linishiga ko'ra;

xo'jalik maqsadida foydalanishiga ko'ra;

Ishlab chiqarish jarayonida foydalanish xususiyatiga ko'ra yer fondini 2 – guruhga bo'lish mumkin: asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida

foydalanilayotgan yerlar va iqtisodiyotning sanoat va boshqa tarmoqlarini joylashtirish uchun makon vazifasini bajarayotgan yerlar.

Birinchi guruhga qishloq va o'rmon xo'jaligi yerlari, ikkinchi guruhga ega qolgan barcha yerlar kiradi. Agar Qashqadaryo viloyatida 1990 yilda jami yer fondining 97,6 % - idan asosiy ishlab chiqarish fondoari sifatida foydalanilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 97,5 foizgacha pasaydi.

Bu, bir tomondan, Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan tarkibiy o'zgarishlar sekinlik bilan amalga oshayotganligini bildiradi. Jami yer fondida ikkinchi guruh yerlar ulushining o'sib borishi qonuniyat hisoblanadi, chunki sanoat, transport va boshqa tarmoqlarning rivojlanishi, yo'llar qurilishi kabi jarayonlar qishloq va o'rmon xo'jalik yerlarining bir qismini ular uchun ajratib berishni taqozo etadi. Bu holat yer resurslaridan samarali foydalanishni shart qilib qoyuvchi obektiv sabablardan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yer fondi tarkibini bunday guruhlash umumiy xarakterga ega bo'lganligi tufayli yerdan oqilona foydalanish va uni huquqiy jihatga tartibga solish bilan bog'liq amaliy vazifalarni hal etish imkonini bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» ga muvofiq yer fondi yerlardan foydalanishining belgilangan asosiy maqsadiga ko'ra 8 toifaga ajratilgan

1) Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga ko'ra mo'ljallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov – daraxtzorlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;

2) Aholi punkt (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punkti) larning yerlari – shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlarichegarasi doirasidagi yerlar;

3) Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarda mo'ljallangan yerlar – ko'rsatilgan maqsadlarga foydalanish uchun yuridik shaxslar uchun beriladigan yerlar;

4) Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek, ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar;

5) Tarixiy – madaniy ahamiyatga molik yerlar, tarixiy madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;

6) O'rmon fondi yerlari – o'rmon bilan qoplangan, shuningdek, o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;

7) Suv fondi yerlari – suv obektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obektlarining qirg'oqlari boylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

8) Zaxira yerlar.

Yer fondining mazkur toifalari ko'p jihatdan iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari tarkibi bilan belgilanadi. Shu sababli ular o'zgarmas hisoblanmaydi va bir toifadan ikkinchi toifaga o'tib turishi mumkin. Yerlarning bir toifadan ikkinchi toifaga o'tishi natijasida yer fondida tarkibiy o'zgarishlar yuz beradi.

2011 yil holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyat yer fondining eng katta qismi 2508,3 ming gektar yoki 87,8 fondi qishloq xo'jaligi yuritish maqsadlariga ajratilgan yerlarga to'g'ri keladi. Bu esa viloyatda qishloq xo'jaligi yuritish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Viloyat o'rmon fondi yerlari o'zining salohiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinda bo'lib 276,6 ming gektarni yoki barcha yerlarning 9,7 % - ini tashkil etadi. Qolgan toifadagi yerlar miqdori ancha past bo'lib, ularning jami yer fondidagi birgalikdagi salmog'i 2,5 % ni tashkil qiladi xolos. Bu esa viloyat yer maydonlari qishloq xo'jaligini yuritish uchun qulay xususiyatlarga ega ekanligini va bu yerda dehqonchilik hamda chorvachilik istiqbollari yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Qashqadaryo viloyatining mintaqaviy joylashuvining o'ziga xos tomonlari, ya'ni uning tog' va tog'oldi zonalarda joylashganligi o'rmon xo'jaligi yerlarining

ham ulushi yuqori ekanligini belgilab beradi va bu borada katta imkoniyatlar borligidan dalolat beradi.

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, 1980 – 2011 yillar davomida viloyat yer fondi hajmi o'zgarmas bo'lsada, uning tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. Chunonchi, tahlil qilinayotgan davr mobaynida qishloq xo'jaligi yerlari 22,9 ming gektarga yoki 0,9 foizga qisqargan. Buning natijasida mazkur yerlarning viloyat yer fondidagi ulushi 1990 yilda 88,6 foizdan 2011 yilda 87,8 foizgacha pasaydi.

Bu pasayish eng avvalo, o'rmon xo'jaligi, aholi punktlari, sanoat, transport, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlarning ham mutloq, ham nisbiy miqdorda o'sganligi bilan bog'liq.

Qashqadaryo viloyatida 1990 – 2011 yillar davomida o'rmon xo'jaligi yerlari 18,1 ming gektarga yoki 7,0 foizga o'sdi. Bu asosan qishloq xo'jaligi yerlarining bir qismini o'rmon xo'jaligiga ajratib berilishi hisobiga yuz berdi. Bu esa o'rmon yerlarining jami yer fondidagi ulushini 9,0 foizdan 9,7 foizga o'sishini ta'minladi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz agrar sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida aholini yer resurslari bilan ta'minlanishida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, 1991 yilda respublika miqyosida aholi shaxsi xo'jaliklari uchun 100 ming gektar yer ajratib berdi. Bunday o'zgarish Qashqadaryo viloyatiga ham xos. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aholi punktlari yerlari 1990 yilda 8,7 ming gektardan, 2011 yilda 11,6 ming gektargacha, ya'ni 33,3 foizga o'sdi. Buning natijasida aholi punktlari yerlarining viloyat yer fondidagi salmog'i 0,3 foizdan 0,4 foizgacha oshdi. Qishloq aholisining yer bilan ta'minlanishidagi bunday ijobiy o'zgarishlar nafaqat ularning uy – joy bilan ta'minlanishining oshishiga, balki daromad manbalarini kengaytirib, o'tish davrida iqtisodiy ahvolining yaxshilanishiga ham turtki bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining jami yer maydonidagi ulushi tumanlar bo'yicha bir – biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Bunday tafovutning mavjudligi ma'muriy – hududiy birliklarning urbanizatsiyalashgan va o'rmon xo'jaligi yerlari bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liq. Xususan, Qarshi shahrida qishloq xo'jaligi yerlari jami yer maydonining 17,1 foizini tashkil qiladi va bu, eng avvalo, jami yer fondida aholi punkti yerlari ulushining yuqoriligi (67,1 foiz) bilan izohlanadi.

Shaxrisabz (62,6 foiz), Qamashi (67,1 foiz), Kitob (68,2 foiz), Dehqonobod (86,0 foiz) va Yakkabog' (86,1 foiz) tumanlarida qishloq xo'jalik yerlarining nisbatan past ulushi jami yer maydonida o'rmon xo'jaligi yerlarining sezilarli salmoqqa ega ekanligi bilan tushuntiriladi.

Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish nuqtai nazardan qishloq xo'jalik yerlarining xo'jalik maqsadida foydalanishiga ko'ra tarkibini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jalik yerlarining asosiy qismi yaylov va pichanzorlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur turdagi yerlarning jami qishloq xo'jaligi yerlardagi salmog'i 1990 yilda 68,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 67,4 % ga teng bo'ldi. Bu albatta viloyatning geografik jihatidan joylashuviga bog'liq bo'lib, uning katta qismini tog' va tog'oldi hududlari tashkil qiladi.

Viloyat qishloq xo'jaligida haydaladigan yerlar o'ziga xos muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning jami qishloq xo'jaligi yerlari yerlaridagi ulushi 30 % ni tashkil qiladi. Haydaladigan yerlarni 1990 yilda 62 % i 2011 yilda esa 62,4 % sug'oriladigan yerlar hisobiga to'g'ri keldi.

Sug'oriladigan yerlarning haydaladigan yerlar hajmidagi salmog'i viloyat tumanlari boyicha bir – biridan farq qilib, bu eng avvalo, tumanlarning o'ziga xos geografik, tabiiy iqlim sharoitlariga bog'liq xususan, Nishon, Mirishkor, Kasbi kabi tumanlarda sug'oriladigan yerlarning hajmi haydaladigan yerlar hajmidagi ulushi 100 foizni tashkil qilsa, Dehqonobod, Chiroqchi, Qamashi, Yakkabog' kabi tumanlarda haydaladigan yerlarning asosiy qismini lalmi yerlar tashkil qiladi. Sug'oriladigan lalmi yerlar o'rtasidagi bunday tafovut yerlardan foydalanish

samaradorligiga, xususan, bir ga yerdan olinadigan mahsulot miqdoriga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Qishloq xo'jaligi yerlarning xo'jalik yuritish shakllari boyicha taqsimlanishida yuz berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ko'lamini va sifatiga baho berishda muhim o'ringallaydi.

Ma'lumki, agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotning bosh maqsadi yerni o'z egasiga yaqinlashtirish va yerga egalik hissini shakllantirishda va shu orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat. Shu maqsadda respublikamiz qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'ldi va qishloqda mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Bu jarayon Qashqadaryo viloyatiga ham xos bo'lib, viloyatda so'nggi yillarda yerdan foydalanuvchilarning tarkibi tubdan o'zgaradi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi uch yil mobaynida jamoa va shirkat xo'jaliklariga birlashtirilgan yerlar jami 1,7 % ga, shu jumladan sug'oriladigan yerlar jami 0,7 foizga qisqargan bo'lsa, fermer va dehqon xo'jaliklari tasarrufidagi yerlar hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 1999 – 2011 yillar davomida fermer xo'jaliklariga ajratilgan yerlar jami 10,4 marta shu jumladan, sug'oriladigan yerlar hajmi 10,2 marta o'sgan bo'lsa, dehqon xo'jaliklarida bu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 8,4 va 8,6 % ga oshgan.

Shunday qilib Qashqadaryo viloyati yer fondining taqsimlanishida yuz bergan o'zgarishlarni tahlil qilish natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkoniyatini beradi:

- Qashqadaryo viloyati yer fondining 97,6 foizidan asosiy ishlab chiqarish fondlari sifatida foydalaniladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, viloyatda mavjud yerlarning asosiy qismi qishloq va o'rmon xo'jaligi yerlari hisoblanadi. Bu viloyat qishloq xo'jalik salohiyatining yuqoriligidan va geografik jihatdan joylashuvining o'ziga xosligidan dalolat beradi:

- Mustaqillik yillarida viloyat yer fondining umumiy hajmi sezilarli darajada o'zgarmagan bo'lsada, uning tarkibida bir muncha o'zgarishlar yuz berdi. 1990 –

2011 yillarda qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy hajmi 22,9 ming gektarga yoki 0,9 foizga qisqardi. Bu qisqarish o'rmon xo'jaligi aholi punktlari, sanoat, transport, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlarning ham mutloq, ham nisbiy miqdorda o'sganligi bilan bog'liq. Xususan, mazkur davr mobaynida o'rmon xo'jaligi yerlari 18,1 ming gektarga yoki 7,0 foizga, aholi punktlari yerlari 8,7 ming gektarga yoki 33,3 foizga o'sdi;

- Qishloq xo'jaligi yerlarining jami yer maydonidagi ulushi tumanlar boyicha bir – biridan sezilarli darajada farq qiladi. (Qarshi shahrida 17,1 foizdan Mirishkor va Muborak tumanlarida 98,6 foizgacha). Bunday tafovutning mavjudligi ma'muriy hududiy birliklarining urbonizatsiyalashganlik va o'rmon xo'jaligi yerlari bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liq;

- Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jalik yerlari tarkibini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, uning qismi yaylov va pichanzorlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur turdagi yerlarning jami qishloq xo'jaligi yerlardagi salmog'i 1990 yilda 68,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 67,4 % ga teng bo'ldi. Viloyat qishloq xo'jaligida haydaladigan yerlar o'ziga xos muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning jami qishloq xo'jaligi yerlardagi ulushi 30 % ni tashkil qiladi. Haydaladigan yerlarning 1990 yildagi 62 % i, 2011 yilda esa 62,4 %, sug'oriladigan yerlar hisobiga to'g'ri keladi;

- Sug'oriladigan yerlarning haydaladigan yerlar hajmidagi salmog'i viloyat tumanlari boyicha bir – biridan farq qilib, bu, eng avvalo, tumanlarning o'ziga xos geografik, tabiiy – iqlim sharoitlariga bog'liq. Xususan, Nishon, Mirishkor, Kasbi kabi tumanlarda sug'oriladigan yerlarning jami haydaladigan yerlardagi ulushi 100 foizni tashkil qilsa, Dehqonobod, Chiroqchi, Qamashi, Yakkabog' kabi tumanlarda haydaladigan yerlarning asosiy qismini lalmi yerlar tashkil etadi;

- Islohotlar yillarida viloyat qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakli paydo bo'ldi va qishloqda mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Buning natijasida yerdan foydalanuvchilarning tarkibi tubdan o'zgardi.

## ***1.2. Qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi va rivojlanishining asosiy omillari***

Qashqadaryo viloyati tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, agroiqlimiy sharoit bu yerda issiqsevar ekinlardan vegetatsiya davri uzoq bo'lgan o'rta tolali va ingichka tolali paxta yetishtirishga, bog'dorchilik va uzumchilikka qulay sharoit yaratadi.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylanishi va rivojlanishiga geografik omillarning ta'siri turlicha. Jumladan, paxtachilik, donchilik, poliz – sabzavotchilikning hududiy tashkil etilishida iqlim, suv va tuproq resurslarining ahamiyati birlamchi bo'lsa, meva – uzumchilik, yaylov chorvachilikning rivojlanishida relef va o'simlik qoplaminin ahamiyati muhimdir.

Har qanday mintaqa qishloq – xo'jaligining rivojlanishi yer fondi bilan ta'minlanishi darajasiga bog'liq. Chunki, mavjud yer fondi tarkibida qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlarning jumladan, sug'orma dehqonchilikka asoslangan shudgorlab dehqonchilik qilinadigan yerlar hissasining ko'pligi, tabiiyki, bu yerda qishloq xo'jaligining paxtachilik, donchilik, polizchilik kabi sohalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda viloyatning umumiy yer fondi 2856,8 ming gektarni tashkil etadi. Jami qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yer maydonlari 2461,7 ming gektar, shundan haydaladigan 677,3 ming gektar meva, uzum va ko'p yillik ekin maydonlar meva, uzum va ko'p yillik ekin maydonlar 32,8 ming gektarni, yaylovlar 1315,2 ming gektarni tashkil etadi.

Viloyat tumanlari yer fondining tuzilishi (2011 yil)

1 – jadval

№	Tumanlar	Umumiy maydoni ming. ga	Qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan jami yer maydoni ming. ga	Shundan ming ga				Yer fondi dan foydalanish koeffitsienti
				Haydaladigan yerlar	Yaylovlar	Meva, uzum va ko‘p yillik ekinlar	Aholi tomorqa yerlari	
1	Dehqonobod	39.57	339.0	44.7	206.8	0.545	4.5	85.6
2	Kasbi	73.5	70.9	43.8	4.5	2.2	4.9	96.4
3	Kitob	174.2	108.7	21.7	72.1	6.6	5.9	62.4
4	Koson	187.2	183.3	73.1	65.6	2.4	8.6	97.9
5	Mirishkor	312.5	306.7	54.8	218.8	1.2	4.4	98.1
6	Muborak	307	281.9	33.3	216.1	0.8	2.3	91.8
7	Nishon	211.1	177.7	50.8	100	1.9	2.8	84.1
8	Chiroqchi	283.7	278.9	121.3	107.3	2.7	16.2	98.3
9	Shahrisabz	166.7	104.3	24.6	73.1	4.4	4.8	62.5
10	Qamashi	245.7	157.0	62.6	113.4	1.8	6.2	63.9
11	Qarshi	91.7	85.8	44.0	18.7	2.6	5.5	93.5
12	G‘uzor	265.2	250.7	61.7	168.8	0.8	4.0	94.8
13	Yakkabog‘	134.9	116.1	39.1	54.1	4.9	5.5	86.1
14	Qarshi shahri	7.5	1.3	0.1	0.01	0.02	1.6	17.3
	Viloyat bo‘yicha:	2856.8	2461.7	677.3	1315.2	32.8	73.8	86.1
Ma’lumotlar Viloyat yer resurslari boshqarmasidan olingan								

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Mirishkor, Chiroqchi, Muborak, G‘uzor, Qamashi, Nishon tumanlari katta yer fondiga ega bo‘lib, ushbu tumanlar maydoni birgalikda jami viloyat maydonining 57 % ini, qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan yerlarning 60 % i va yaylovlarning 70 % ini egallaydi.

Ayni vaqtda viloyatning tekislik zonasida joylashgan. Kasbi, Koson, Qarshi tumanlari yer fondi tarkibida haydaladigan yerlar hissasi yuqori, jumladan, bunday yerlar. Kasbi tumanida umumiy yer fondining 65 % i, Kosonda 45%, Qarshi tumanida 50% ini egallaydi. Ularning maydoni esa viloyat maydonining 12,3% iga teng. Ushbu tumanlar 1960 yillarda Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish natijasida tashkil etilgan bo‘lib, ular viloyatning asosiy paxta va don mahsulotlarini yetkazib beruvchi qishloq xo‘jaligi rayoni hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati respublikamizning asosiy qishloq xo‘jaligi rayonlaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish xususan,

1950 – 1960 yillarda avj oldi. Ayni shu yillarda Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi, bu yerda sug‘orish infratuzilmalarining qurib ishiga tushirilishi paxtachilikka ixtisoslashgan tuman va xo‘jaliklarni rivojlantirishiga olib keldi.

Qishloq xo‘jaligi tarkibida dehqonchilik tarmog‘i chorvachilik tarmog‘iga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Masalan, 2004 yilda viloyat qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotlar hajmida dehqonchilik tarmog‘i hissasi 54,5% ini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2011 yilda 53% ni tashkil etdi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tilayotgan hozirgi sharoitda viloyat qishloq xo‘jaligi tarmoqlar sohasida ham tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, paxtachilik, donchilik tarmoqlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

### **Ekinlar ekilgan yer maydonlari**

2 – jadval

	<b>2005 yil</b>	<b>2006 yil</b>	<b>2007 yil</b>	<b>2011 yil</b>
Jami qishloq xo‘jaligi ekinlari ekib foydalanadigan yerlar (ming/ga) Shundan:	671.7	675.1	675.8	677.3
Sug‘oriladigan yerlar Shu jumladan:	416.6	419.4	419.9	421.3
Paxta maydoni	173.8	188.8	173.2	174.8
G‘alla maydoni	258.8	243.4	247.8	205.8
Shundan:				
Sug‘oriladigan yerlarda don ekiladigan maydon	158.2	158.7	161.4	165.5
Ma‘lumotlar Viloyat yer resurslari boshqarmasidan olingan				

Jadval ma‘lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda viloyat qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari tarkibida donli ekinlar asosan, bug‘doy hisobidan ortmoqda. Bu bejiz emas, albatta, chunki mustaqillikning dastlabki yillarida respublika don mustaqilligiga erishish dasturining amalga oshirilishi bug‘doy ekiladigan maydonlarning kengayishiga olib keldi.

2005 yilda viloyatda g‘alla maydoni jami sug‘oriladigan yerlarning 62% ini tashkil etgan bo‘lsa, 2011 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 50% ni tashkil etdi.

Sugʻoriladigan yerlarda bu koʻrsatkich mos ravishda 2005 yilda 38%, 2008 yilda 40% ni tashkil etdi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlari davrida mamlakat agrar siyosati qishloq xoʻjaligida turli mulkchilik shakllarini vujudga keltirish, qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish, dehqonlarning yerga va mulkka boʻlgan munosabatini oʻzgartirish, pirovard natijasida ularning moddiy manfaatdorligini oshirish va shu asosda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning oʻsishiga qaratilgan.

**Qashqadaryo viloyati tumanlarida paxta ekin maydonlari, yalpi hosili va hosildorlik koʻrsatkichlari**

(2011 yil)

– jadval

<b>№</b>	<b>Tumanlar</b>	<b>Ekin maydonlari, ming ga</b>	<b>Yalpi hosil m tonna</b>	<b>Hosildorlik ts/ga</b>
	Viloyat boʻyicha:	174.8	461.3	26.4
1	Dehqonobod	-	-	-
2	Kasbi	25.3	67.2	26.5
3	Kitob	3.4	10.5	30.5
4	Koson	27.9	75.5	27.0
5	Mirishkor	23.0	53.5	23.2
6	Muborak	11.1	24.7	22.2
7	Nishon	21.5	47.0	22.0
8	Chiroqchi	10.6	25.1	23.7
9	Shahrisabz	6.9	20.2	29.3
10	Qamashi	9.1	25.2	27.7
11	Qarshi	16.4	48.9	29.8
12	Gʻuzor	11.7	19.4	17.0
13	Yakkabogʻ	10.5	23.9	22.7

3 – jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, 2011 yilda viloyat paxta ekin maydonlari tarkibida har birining ekin maydonlari oʻn besh ming gektardan ortiq boʻlgan 5 ta maʼmuriy hududlar – Koson, Kasbi, Mirishkor, Nishon, Qarshi tumanlari mavjud. Ular jami ekin maydonlarining 65,3% ini egallaydi va yalpi paxta hosilining 63,6% ini taʼminlaydi.

Viloyat qishloq xoʻjaligida donchilik paxtachilikdan keyingi ixtisoslashgan va qisman lalmikor yerlarda rayonlashtirilgan.

Viloyatdagi jami bo‘g‘doy ekiladigan maydonlarning 80,5% ini sug‘oriladigan yerlar, 19,5% ini lalmikor ekin yerlar tashkil etadi.

**Qashqadaryo viloyati tumanlarida g‘alla ekin maydonlari, yalpi hosili va hosildorlik ko‘rsatkichlari (2011 yil)**

– jadval

<b>№</b>	<b>Tumanlar</b>	<b>Ekin maydoni ming ga</b>	<b>Yalpi hosil ming tonna</b>	<b>Hosildorlik ts/ga</b>
1	Dehqonobod			
2	Kasbi	15.8	78641	49.7
3	Kitob	7.4	24309	32.8
4	Koson	19.3	97951	50.7
5	Mirishkor	24.2	124445	51.4
6	Muborak	10.9	45418	41.6
7	Nishon	21.1	110746	52.4
8	Chiroqchi	48.6	61685	12.6
9	Shahrisabz	9.0	34930	38.8
10	Qamashi	21.5	61480	28.5
11	Qarshi	15.6	79129	50.7
12	G‘uzor	18.4	44384	24.1
13	Yakkabog‘	14.8	51485	34.7
14	Qarshi sh.	0.1	176	17.6
	Viloyat bo‘yicha:	205.8	816.6	39.7

**Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.**

1991 – 2011 yillar davomida bug‘doy ekiladigan ekin maydonlari 3 martaga, yalpi hosili esa 7,1 martaga ko‘paydi, hosildorlik 17,3 tsentnerdan 39,7 tsentnerga yetdi. Bug‘doy viloyatning barcha tumanlarida yetishtirilsada, uning asosiy qismi Mirishkor tumaniga jami bug‘doy ekin maydonlarining 11,7%i, bug‘doy yalpi hosilining 15,2%i, Chiroqchi 23,6 va 7,5, Nishon 10,2 va 13,5 Qamashi 10,4 va 7,5, Koson 9,3 va 12, G‘uzor 8,9 va 5,4, Qarshi 7,5 va 9,7%i to‘g‘ri keladi. Bug‘doy hosildorligi bo‘yicha Nishon (52,4 sentner), Mirishkor (51,4). Koson (50,7), Qarshi (50,7), Kasbi (49,7), tumanlari ajralib turadi. Ayni vaqtda Chiroqchi tumanida bu ko‘rsatkich eng past bo‘lib, ya‘ni 12,6 tsentnerni tashkil etdi, xolos. Buning asosiy sabablaridan biri tumanda bug‘doy ekinlari tog‘ oldi lalmikor yerlarida ekiladi, shu boisdan ob – havo sharoitining quruq kelishi, yog‘in – sochinning kam tushishi bug‘doy hosildorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligining yana bir muhim tarmog'i kartoshka, poliz, sabzavotchilik hisoblanadi. Viloyatda kartoshka, sabzavot, poliz yetishtirishning imkoniyatlari keng. Jumladan, tabiiy sharoitning qulayligi, vegetatsiya davrining uzunligi mazkur ekinlardan yuqori hosil olishni ta'minlaydi. Biroq, shu sohani rivojlantirishning keng imkoniyatlari bo'yicha bir xilda rivojlanmagan.

Kartoshka yalpi hosili bo'yicha Shahrisabz (2240 t), Chiroqchi (9270 t), Kitob (7120 t), Yakkabog' (10342 t) tumanlari yetakchilik qiladi. Sabzavot ekinlari lpi hosili bo'yicha Shahrisabz (30444 tonna) Kitob (23856 tonna), Yakkabog' (22919 tonna), Qamashi (22890 tonna) tumanlari, poliz ekinlari yalpi hosili bo'yicha esa G'uzor (9620 tonna), Koson (9413 tonna), Yakkabog' (5929 tonna), Chiroqchi (5852 tonna) tumanlari oldingi o'rinlarni egallaydi.

Viloyat qishloq xo'jaligi tarmog'ining ikkinchi yirik tarmog'i chorvachilik sohasidir. Bu tarmoqda jami qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 47% i ishlab chiqariladi. Chorvachilik tarmog'i qoramolchilik, qo'y va echkichilik, parrandachilik, yilqichilik va cho'chqachilikdan ibora. Biroq, so'nggi yillarda chorva mollari bosh soni va mahsulot ishlab chiqarish hajmining keskin kamayishi kuzatilmoqda. Bu jarayon esa viloyatning respublika mehnat taqsimotidagi o'rning sezilarli kamayishiga olib keldi.

**Qashqadaryo viloyati tumanlarida kartoshka, sabzavot, poliz ekinlarining  
yalpi hosili ko'rsatkichlari (2011 yil)**

– jadval

<b>№</b>	<b>Tumanlar</b>	<b>Kartoshka tonna</b>	<b>Sabzavot tonna</b>	<b>Poliz tonna</b>
1	Dehqonobod			
2	Kasbi	1294	8130	3372
3	Kitob	7120	23856	-
4	Koson	398	18928	9413
5	Mirishkor	2025	5722	2545
6	Muborak	226	3986	2804
7	Nishon	620	6206	3311
8	Chiroqchi	9270	20039	5852
9	Shahrisabz	22040	30444	450
10	Qamashi	1150	22890	2300
11	Qarshi	1412	18559	3571
12	G'uzor	120	12124	9620
13	Yakkabog'	10342	22919	5929
14	Qarshi sh.	11	1138	-
	<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>64700</b>	<b>218500</b>	<b>56500</b>

Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2011 yil ma'lumotlariga ko'ra Qashqadaryo viloyatida 773,0 ming bosh yirik shoxli qoramol va 2375,8 bosh qo'y va echkilar qayd qilingan. Yirik shoxli qoramollar soni bo'yicha viloyat respublikada Samarqand viloyatidan keyingi ikkinchi, qo'y va echkilar soniga ko'ra birinchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, bu yerda otlar soni ham nisbatan ko'proq 19,8 ming bosh. Chorvachilik tarmog'ida ham bozor iqtisodiyoti negizida yangi xo'jalik (fermer xo'jaliklari) sub'ektlari shakllanib, ushbu nodavlat xo'jaliklarning umumchorvachilik tarmog'idagi hissasi ortib bormoqda.

Shuni alohida qayd etish lozimki, aholining chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji asosan aholi (shaxsiy) xo'jaliklari hisobiga qondirilmoqda. Binobarin, chorvachilikning barcha tarmoqlarida aholi xo'jaliklarining hissasi yuqori.

**Qashqadaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(tonna hisobida)**

<b>№</b>	<b>Chorvachilik mahsulot turlari</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>2005 yil</b>	<b>2006 yil</b>	<b>2007 yil</b>	<b>2011 yil</b>	<b>2011 yilda 2005 yilga nisbatan o'sishi (%)</b>
1	Go'sht	1000 tonna	006.5	119.1	132.4	144.4	13.5
2	Sut	1000 tonna	395.4	444.7	490.3	529.6	13.3
3	Tuxum	mln dona	111.6	124.5	132.1	138.4	12.4
4	Jun	tonna	3590.0	3962.0	4170.0	4324.0	12.0
5	Qorako'l teri	1000 dona	94.7	103.6	108.0	112.3	11.8
6	Pilla	1000 tonna	1.9	1.8	2.2	2.5	13.1

**Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.**

Masalan, 2011 yilda viloyatdagi jami qoramollarning 90% ini, sigirlarning 91% i, qo'y va echkilarning 76% i, yilqilarning 74% i va parrandalarning 65% i aynan shu xo'jaliklar ulushiga to'g'ri kelgan. Ko'rilayotgan yilda shaxsiy xo'jaliklarda viloyatda ishlab chiqarilgan go'shtning 93% i, sutning 97% i, tuxumning 65% i ishlab chiqarilgan. Umuman olganda, viloyatning barcha turdagi xo'jalik sub'ektlarida tadqiqot etilayotgan yillarda don, bug'doy, sabzavot, poliz, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirish o'sib borgan bo'lsa, qolgan mahsulotlar bo'yicha o'sish bir tekis bo'lmagan.

Qoramollarning asosiy qismi Chiroqchi, Kitob, Qamashi va Kasbi tumanlariga to'g'ri keladi. Ushbu tumanlarda viloyatdagi jami qoramollar sonining 41,3% i boqiladi. Shuningdek, sog'in sigirlar soni bo'yicha ham yuqoridagi tumanlarning salohiyati yuqori. Qo'y va echkilarning bosh soniga ko'ra Chiroqchi, G'uzor, Koson tumanlari yetakchi bo'lib, ularning hissasiga viloyat jami qo'y va echkilarning 37,2% i to'g'ri keladi.

Parrandachilik sohasi ham chorvachilikning muhim sohasi bo'lib, aholining parranda go'shti va tuxumga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Parrandalar bosh soniga ko'ra Chiroqchi, Qamashi va Shahrisabz tumanlari yetakchi bo'lib, ularning hissasiga viloyat jami parrandalarning 37% i to'g'ri keladi.

Yilqichilik sohasi bo'yicha Chiroqchi (4141 bosh), Qamashi (3046 bosh), Yakkabog' (1668 bosh) va G'uzor (1285 bosh) tumanlari ajralib turadi.

Go'sht va sut mahsulotlari yetishtirishda Chiroqchi, Qamashi, Koson tumanlarining ulushi yuqori bo'lib, mazkur tumanlarga viloyatda yetishtirilgan jami go'sht mahsulotlarining 30,5% i, sutning 33,3% i to'g'ri keladi.

Tuxum yetishtirishda esa Chiroqchi, Qamashi, Shahrisabz va Koson tumanlari yetakchilik qiladi.

Oliy Majlisning IX sessiyasida (1998 yil 28 – 30 aprel) O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi to'g'risida»gi, «Qishloq xo'jaligi (shirkat xo'jaligi) kooperativi to'g'risida»gi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Qishloq xo'jaligida yangi xo'jalik yuritish subektlarini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishning asosiy huquqiy jihatlari ushbu qonunlarda ishlab chiqarish, iqtisodiy va mehnat munosabatlarini tubdan o'zgartirishga qaratilgan va qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirishga keng yo'l ochib berildi.

Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subektdir. Aksariyat hollarda fermer xo'jaliklari oilaviy asosda tashkil etilib, uning a'zolariga fermer xo'jaligini birgalikda yuritayotgan, bu xo'jalikdagi/ ish o'zining asosiy mehnat joyi bo'lgan fermer xo'jaligining boshlig'i, uning xotini, bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olingan bolalari va mehnatga layoqatli bo'lgan boshqa shaxslar kiradi. Fermer xo'jaliklari shartnomalar asosida tashqaridan ishchilar yollashi ham mumkin.

Dehqon xo'jaligi esa oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida meros qilib umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va bozorlarda ortiqcha yetishtirgan mahsulotlarni sotadi. Qonun boyicha dehqon xo'jaliklarining yollanma mehnatdan foydalanishi birmuncha cheklangan bo'lib, huquqiy shaxs maqomini olgan holda yoki olmasdan faoliyat yuritishi mumkin. Dehqon xo'jaligi sug'oriladigan maydonlarda respublikamiz hududlarining yer ajratish imkoniyatlariga bog'liq ravishda 0,35 gektarga, sug'orilmaydigan yerlarda 0,5 gektargacha bo'lgan o'lchamlarda, cho'l mintaqalarida esa 1 gektargacha maydonlarda tashkil etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo viloyatida dehqon va fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda o'ziga xos muhim o'rin egallaydi. Mazkur xo'jaliklar faoliyati uchun huquqiy asosning yaratilishi natijasida viloyatda yaratilayotgan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining va alohida ekin turlarining sezilarli qismi ular tomonidan yaratilmokda.

Dehqonchilik tarmog'ida fermer xo'jaliklarining mazkur tarmoqda yaratilgan yalpi mahsulotning 2000 yilda 6,7 foizi, 2008 yilda 98,1 foizi fermer xo'jaliklari hisobiga to'g'ri kelgan. Dehqon xo'jaliklarining ushbu tarmoq yalpi mahsulotida nisbatan past ulushga ega ekanligi ularda asosiy qishloq xo'jaligi ekini hisoblangan – paxtaning yetishtirilmasligi bilan bog'liq..

Viloyatdagi asosiy ekin turlari – paxta va g'alla asosan fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Ularning paxta ishlab chiqarishdagi ulushi 2000 yilda 11,7 % ni 2011 yilda 98,7 % ni tashkil etadi.

G'alla ishlab chiqarishda dehqon va fermer xo'jaliklarining ulushi bir muncha yuqori. Xususan, 2000 yilda dehqon va fermer xo'jaliklarining g'alla yetishtirishda birgalikdagi ulushi 22,7 % ni, 2010 yilda esa 98,6 % ni tashkil qildi. Bu o'sish asosan, fermer xo'jaliklari hisobiga yuz berdi.

Tahlil natijalari turli xo'jalik yuritish shakllari tomonidan ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar va unda dehqon va fermer xo'jaliklarining roli oshayotganligidan dalolat beradi.

Fermer xo'jaliklarida hosildorlik ko'rsatkichi 2011 yilda 2000 yilga nisbatan paxta va g'alla boyicha muvofiq ravishda 4,6 va 5,3 % ga o'sgan. G'alla boyicha dehqon xo'jaliklarida viloyat o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan hosildorlik darajasi 2000 yilda 47,6 % ga yuqori bo'lgan bo'lsa, kartoshka boyicha 105,4 % ga, sabzavot boyicha 5,9 % ga, poliz boyicha 43,2 % ga, meva boyicha 36,4 % ga, uzum boyicha 10,7 % ga yuqori bo'lgan.

Barcha turdagi asosiy qishloq xo'jalik ekinlari boyicha dehqon xo'jaliklarida 2011 yilda 2000 yilga nisbatan hosildorlik darajasi oshgan. Xususan, g'alla hosildorligi 14,7 % ga, kartoshka hosildorligi 5 % ga, sabzavot 2,2 % ga, poliz 4,3 % ga, meva hosildorligi 0,3 % ga o'sgan. Hosildorlik ko'rsatkichi o'rtasidagi nisbatda dehqon xo'jaliklarini ustunligi yanada ortdi. Xususan, 2011 yilda dehqon xo'jaliklarida hosildorlik darajasi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan g'alla boyicha 47,5 % ga, kartoshka boyicha 7 % ga, sabzavot boyicha 13,0 % ga, poliz boyicha 44,7 % ga, meva 57,6 % ga, uzum 18,4 % ga yuqori bo'ldi.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, fermer xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligi talab darajasidan pastroq. Bunday holat eng avvalo quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- fermer xo'jaliklariga ajratib berilgan yerlarning unumdorlik darajasi ancha past;

- fermer xo'jaliklari ko'p hollarda o'zlariga ajratib berilgan yer maydonlaridan mustaqil foydalana olmayaptilar;

- fermer xo'jaliklarida agrotexnik va texnologik jarayonlarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun texnika vositalari yetishmaydi. Shirkat xo'jaliklarida va tuman MTP larida mavjud texnika vositalarining etishmasligi tufayli fermer xo'jaliklariga eng oxirgi navbatda xizmat ko'rsatmoqdalar. Bu o'z navbatida fermer xo'jaliklarining yerdan samarali foydalanishlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

- fermer xo'jaliklariga qonunda ko'zda tutilgan miqdorda yer ajratib berilmaslik holatlari va hokazo.

Bizning fikrimizcha, fermer xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora – tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- fermer xo'jaliklari faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi xizmat ko'rsatish tizimi bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish;
- fermer xo'jaliklariga ajratib berilayotgan yerdan foydalanishda, ekinlar tarkibini tanlashda qonunchilikda ko'zda tutilgan erkinliklarini to'liq ta'minlash;
- yerdan foydalanish samaradorligini oshirganligi va yerlarning meliorativ holatini yaxshilanganligidan fermer xo'jaliklarining manfaatdorligini oshirish;
- fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish;
- fermerlarning bilim va kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yo'lga qoyish va boshqalar.

Dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining boshqa xo'jalik yuritish shakllariga nisbatan yuqoriligi dehqon xo'jaliklarining mulkka, yerga va yetishtirilgan mahsulotga egalik hissi va ishonchining ortib borishi vash u asosda mehnatga bo'lgan munosabatning o'zgarishi bilan tushuntiriladi.

Dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining yuqori bo'lishiga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatdi:

- dehqon xo'jaliklari mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi bozor subekti sifatida faoliyat ko'rsatish uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan;
- dehqon xo'jaliklari to'liq xususiy mulk asosida faoliyat yuritish ularga mustaqil ravishda barcha xavf – xatarlarni o'z zimmalariga olgan holda bozorlarni va ekin turlarini tanlash imkoniyatini beradi;
- dehqon xo'jaliklariga yer maydonlarining meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod egalik qilishga berilishi ularga yerlarning meliorativ holatini yaxshilab berishiga va tuproqlar unumdorligini oshirishga undaydi;
- dehqon xo'jaliklarida yerdan samarali foydalanish va moddiy manfaatdorlik o'rtasida bevosita bog'liqlik ta'minlangan va hokazo.

Shunday qilib, viloyatda qishloq xo‘jaligi, xususan, paxta, g‘alla, meva, sabzavot, poliz ekinlari yetishtirish hamda chorvachilik uchun qulay sharoitlar mavjud. Aynan ana shu agroiqtisodiyot tarmoqlari Qashqadaryo viloyatining respublika mehnat taqsimotidagi o‘rni belgilab beradi.

### **1.3. Qashqadaryo viloyati dehqonchilik tarmog‘i rivojlanishining hududiy jihatlari**

Har qanday mintaqa qishloq - xo‘jaligining rivojlanishi yer fondi bilan ta‘minlanishi darajasiga bog‘liq. Chunki, mavjud yer fondi tarkibida qishloq xo‘jaligi uchun yaroqli yerlarning jumladan, sug‘orma dehqonchilikka asoslangan shudgorlab dehqonchilik qilinadigan yerlar hissasining ko‘pligi, tabiiyki, bu yerda qishloq xo‘jaligining paxtachilik, donchilik, polizchilik kabi sohalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda viloyatning umumiy yer fondi 2856,8 ming gektarni tashkil etadi. Jami qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan yer maydonlari 2461,7 ming gektar, shundan haydaladigan 677,3 ming gektar , meva, uzum va ko‘p yillik ekin maydonlar 32,8 ming gektarni, yaylovlar 1315,2 ming gektarni tashkil etadi.

Mirishkor, Chiroqchi, Muborak, G‘uzor, Qamashi, Nishon tumanlari katta yer fondiga ega bo‘lib, ushbu tumanlar maydoni birgalikda jami viloyat maydonining 57 % ini, qishloq xo‘jaligiga yaroqli bo‘lgan yerlarning 60 % i va yaylovlarning 70 % ini egallaydi.

Ayni vaqtda viloyatning tekislik zonasida joylashgan. Kasbi, Koson, Qarshi tumanlari yer fondi tarkibida haydaladigan yerlar hissasi yuqori, jumladan, bunday yerlar Kasbi tumanida umumiy yer fondining 65 % i, Kosonda 45%, Qarshi tumanida 50% ini egallaydi. Ularning maydoni esa viloyat maydonining 12,3% iga teng. Ushbu tumanlar 1970 yillarda Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish natijasida tashkil etilgan bo‘lib, ular viloyatning asosiy paxta va don mahsulotlarini yetkazib beruvchi qishloq xo‘jaligi rayoni hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati respublikamizning asosiy qishloq xo‘jaligi rayonlaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish xususan, 1950 - 1970 yillarda avj oldi. Ayni shu yillarda Qarshi cho‘lining o‘zlashtirilishi,

bu yerda sugʻorish infratuzilmalarining qurib ishga tushirilishi paxtachilikka ixtisoslashgan tuman va xoʻjaliklarni rivojlantirishiga olib keldi.

Qishloq xoʻjaligi tarkibida dehqonchilik tarmogʻi chorvachilik tarmogʻiga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Masalan, 2004 yilda viloyat qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotlar hajmida dehqonchilik tarmogʻi hisyasi 54,5% ini tashkil etgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2011 yilda 53% ni tashkil etdi.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtilayotgan hozirgi sharoitda viloyat qishloq xoʻjaligi tarmoqlar sohasida ham tarkibiy oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu oʻzgarishlar, ayniqsa, paxtachilik, donchilik tarmoqlarida yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Soʻnggi yillarda viloyat qishloq xoʻjaligi ekin maydonlari tarkibida donli ekinlar, asosan, bugʻdoy hisobidan ortmoqda. Bu bejiz emas, albatta, chunki mustaqillikning dastlabki yillarida respublika don mustaqilligiga erishish dasturining amalga oshirilishi bugʻdoy ekiladigan maydonlarning kengayishiga olib keldi.

2004 yilda viloyatda gʻalla maydoni jami qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlarning 62% ini tashkil etgan boʻlsa, 2007 yilga kelib, bu koʻrsatkich 50% ni tashkil etdi. Sugʻoriladigan yerlarda bu koʻrsatkich mos ravishda 2004 yilda 38%, 2007 yilda 40% ni tashkil etdi.

2011 yilda viloyat paxta ekin maydonlari tarkibida har birining ekin maydonlari oʻn besh ming gektardan ortiq boʻlgan 5 ta maʼmuriy hududlar - Koson, Kasbi, Mirishkor, Nishon, Qarshi tumanlari mavjud. Ular viloyat jami ekin maydonlarining 65,3% ini egallaydi va yalpi paxta hosilining 63,6% ini taʼminlaydi.

Viloyat qishloq xoʻjaligida donchilik paxtachilikdan keyingi ixtisoslashgan va qisman lalmikor yerlarda rayonlashtirilgan.

Viloyatdagi jami bugʻdoy ekiladigan maydonlarning 80,5% ini sugʻoriladigan yerlar, 19,5% ini lalmikor ekin yerlar tashkil etadi.

1991 - 2011 yillar davomida bugʻdoy ekiladigan ekin maydonlari 3 martaga, yalpi hosili esa 7,1 martaga koʻpaydi, hosildorlik 17,3 sentnerdan 39,7

sentnerga yetdi. Bug‘doy viloyatning barcha tumanlarida yetishtirilsada, uning asosiy qismi Mirishkor tumaniga, jami bug‘doy ekin maydonlarining 11,7%i, bug‘doy yalpi hosilining 15,2%i, Chiroqchi 23,6 va 7,5, Nishon 10,2 va 13,5 Qamashi 10,4 va 7,5, Koson 9,3 va 12, G‘uzor 8,9 va 5,4, Qarshi 7,5 va 9,7%i to‘g‘ri keladi. Bug‘doy hosildorligi bo‘yicha Nishon (52,4 sentner), Mirishkor (51,4). Koson (50,7), Qarshi (50,7), Kasbi (49,7), tumanlari ajralib turadi. Ayni vaqtda Chiroqchi tumanida bu ko‘rsatkich eng past bo‘lib, ya‘ni 12,6 sentnerni tashkil etdi, xolos. Buning asosiy sabablaridan biri tumanda bug‘doy ekinlari tog‘ oldi lalmikor yerlarida ekiladi, shu boisdan ob - havо sharoitining quruq kelishi, yog‘in - sochinning kam tushishi bug‘doy hosildorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligining yana bir muhim tarmog‘i kartoshka, poliz, sabzavotchilik hisoblanadi. Viloyatda kartoshka, sabzavot, poliz yetishtirishning imkoniyatlari keng. Jumladan, tabiiy sharoitning qulayligi, vegetatsiya davrining uzunligi mazkur ekinlardan yuqori hosil olishni ta‘minlaydi. Biroq, shu sohani rivojlantirishning keng imkoniyatlari bo‘yicha bir xilda rivojlanmagan.

Kartoshka yalpi hosili bo‘yicha Shahrisabz (22040 t), Yakkabog‘ (10342 t), Chiroqchi (9270 t), Kitob (7120 t), tumanlari yetakchilik qiladi. Sabzavot ekinlari yalpi hosili bo‘yicha Shahrisabz (30444 tonna), Kitob (23856 tonna), Yakkabog‘ (22919 tonna), Qamashi (22890 tonna) tumanlari, poliz ekinlari yalpi hosili bo‘yicha esa G‘uzor (9620 tonna), Koson (9413 tonna), Yakkabog‘ (5929 tonna), Chiroqchi (5852 tonna) tumanlari oldingi o‘rinlarni egallaydi.

Xulosa qilib ta‘kidlash mumkinki, qishloq xo‘jaligi dehqonchilik tarmog‘ining hududiy tarkibini takomillashtirishda mavjud tabiiy resurslardan, xususan, yer–suv resurslaridan oqilona foydalanish, har bir tuman, fermer va dehqon xo‘jaliklari hududiy joylashuvi, imkoniyat va muammolarini o‘rganish lozim.

## **II BOB. Quyi Qashqadaryo mintaqasi qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi va rivojlanishi**

### **2.1. Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi va u bilan bog'liq muammolar**

Qarshi cho'li – O'zbekiston Respublikasining asosan Qashqadaryo, qisman Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari hamda Turkmanistonning Lebop viloyatlari hududida joylashgan. Cho'lining umumiy maydoni taxminan 13,0 ming kv.km, shundan 11,8 ming kv.km (91 %) Qashqadaryo viloyatining Kasbi, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon va Qarshi tumanlariga to'g'ri keladi. Viloyatning ma'muriy markazi Qarshi shahrida mahalliy aholi azaldan o'troq hayot kechirganligi sababli yangi o'zlashtirilgan xududlar doirasida o'rganilmadi.

Qadimdan Qarshi cho'lidan aholi asosan doimiy va mavsumiy yaylov sifatida foydalanib, chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Qarshi cho'lini geografik o'rganish tarixi yer - suvdan foydalanish masalalari tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Buni sardoba, qoq, charli, koriz, quduq, hovuz kabi suvdan foydalanish bilan bog'liq oddiy va puxta o'ylab barpo etilgan inshootlarning hozirgacha saqlanib qolganligidan ko'rish mumkin.

Qarshi cho'lini kompleks o'zlashtirish sobiq Ittifoq hukumatining 1969 yil 8 avgustdagi 1764-R farmoyishi bilan boshlandi. Qarshi cho'lini o'zlashtirish maqsadida juda katta va ko'p qirrali kompleks ilmiy qidiruv ishlari olib borildi. Bunga misol tariqasida "Sredazgiprovdoklopok", "Uzgiprozem – O'zbekiston yer ishlarini loyihalashdavlat instituti", O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tuproqshunoslik instituti, "O'zbekiston gidrogeologiya" ilmiy – ishlab chiqarish birlashmasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi geografiya bo'limining 1969-1972 yillardagi Qarshi cho'lida olib borgan ekspeditsiyasi, "O'zbekgidrogeologiya"ning aerofoto metodlar laboratoriyasi, Toshkent Davlat Universitetining (hozirgi O'ZMU) ekspeditsiyasi va boshqa dalada olib borilgan ma'lumotlarni xulosalash bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlarini keltirish mumkin. 1956-1959 yillarda Toshkent Davlat Universitetining bir guruh olimlari tomonidan Qashqadaryo viloyatida ilmiy ekspeditsiya uyushtirildi va ekspeditsiya natijalari sifatida ikki tomlik "Kashkadarinskaya oblast" monografiyasi shu yillarda nashr qilindi.

Mazkur monografiyalarda birinchi marta Qashqadaryo havzasiga to'liq tabiiy va iqtisodiy – ijtimoiy geografik tavsif berildi. Ushbu tadqiqotlarni olib borishga O'zbekistonning taniqli geograf olimlaridan L.N.Babushkin, Z.M.Akramov, O.Y.Poslavskaya, V.L.Shuls, R.Xodiyev va boshqalar katta hissa qo'shishgan.

Qarshi cho'lini o'zlashtirish, uni suv manbalari bilan ta'minlash maqsadida Amudaryodan uzunligi 150 km. bo'lgan Qarshi magistral kanali (QMK) tortildi va sig'imi 1,5 milliard kubometr keladigan Talimarjon suv ombori bunyod etildi.. Qarshi cho'lida 300 ming gektardan ko'proq yangi yerlarni sug'orish uchun o'tgan davr mobaynida jami 2750 km uzunlikda kanal va ariqlar barpo qilindi. 1973 yildan Qarshi cho'lining birinchi navbatini keng ko'lamda o'zlashtirish va sug'orish ishlari natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirila boshlandi. 1980 yilgacha cho'lning o'zlashtirish zonasida jami 167,1 ming gektar yer irrigatsiya-melioratsiya jihatidan tayyorlandi. Tayyorlangan yerlarning 144,3 ming gektari qishloq xo'jalik oborotiga kiritilgan bo'lsa, qolgan. 20 ming gektardan ko'proq yer xo'jalik maqsadlari va boshqa ehtiyojlar uchun foydalanildi.

1990 yilga kelib Qarshi cho'lini o'zlashtirishning birinchi bosqichi tugallanib, 1970 – 90 yillar davomida respublika byudjetidan qator obektlar qurildi. Uzunligi 150 km keladigan va oltita nasos stansiyasi bo'lgan, bir sekunda 200 kubometr suv o'tkaza oladigan Qarshi magistral kanali; uzunligi 105 km keladigan Mirishkor (sobiq Ulyanov) kanali; salkam 10 ming km kollektor-drenaj tarmoqlari; qariyb 2 ming km elektr liniyasi; 1100 km avtomobil yo'llari; 400 km zax qochirish magistral kanallari 327 ming kubometr binokorlik materiallari va konstruksiyalari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan kombinat, yiliga 110 ming kv.m uy-joy ishlab chiqaradigan uysozlik kombinati; yiliga 165 ming kubometr keramzit ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan keramzit zavodi kabi inshootlar qurildi. Bundan tashqari bir vaqtning o'zida qo'riq bag'rida har biri 3500-4000 aholi yashashi va mehnat qilishi uchun mo'ljallangan 55 ta davlat xo'jaligi (sovxoz) tashkil etildi. Ularda 21000 qoramolni parvarish qiladigan yirik chorvachilik fermalari, 60 dan ortiq ishlab chiqarish-xo'jalik markazlari, yiliga 11000 ga yaqin texnika va mexanizatsiyalarga xizmat ko'rsatadigan ustaxonalar,

1000 dan ortiq dala shiyponlari, 4193 km li kanalizatsiya, 1941 km li vodoprovod, 362 km li avtomobil yo'llari ishga tushirildi. Qarshi cho'lini o'zlashtirish davomida 3 mln kv.m ga yaqin uy-joy, 14540 o'rinli bolalar bog'chasi, 56750 o'rinli zamonaviy uslubdagi maktab, 8540 bemorni qabul qiladigan va ularga xizmat ko'rsatadigan poliklinika, 1718 o'rinli shifoxona, 17825 o'rinli klub va boshqa ko'plab madaniy-maishiy, ma'muriy, xo'jalik binolari foydalanishga topshirildi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan obektlarni qurishdan maqsad – yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish uchun zarur ishlab chiqarish, madaniy-maishiy hamda boshqa sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lgan.

Qarshi cho'lini o'zlashtirish munosabati bilan mexnat resurslariga bo'lgan ehtiyoj viloyatning Kitob, Yakkabog', Dehqonobod, Qamashi, G'uzor tumanlarining tog'li qishloq aholisini ko'chirib keltirish hisobidan qondirildi. Bunda qo'riq yerlarda yangidan bunyod etilgan qishloq aholi manzilgohlarining yer-suv resurslari va ijtimoiy infrastruktura obektlari bilan yaxshi ta'minlanganligi hamda ushbu hududlarga aholining ko'chib kelishini rag'batlantirish maqsadida ish haqlarining yuqori qilib belgilanganligi muhim omil bo'lgan. Natijada mintaqa aholisi muntazam o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib keldi. Masalan 1979 yilgi Sobiq Ittifoq aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra Qarshi cho'li tumanlarida 339.4 ming kishi yoki viloyat umumiy aholisining 30.2 foizi yashagan bo'lsa, oradan qirq yil o'tgandan so'ng mintaqa aholisi 456.2 ming kishi ko'payib, viloyat aholisining 31.7 foizini tashkil etdi.

2009 yil O'zbekistonda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009 yil 13 martda "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy – hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan respublikadagi 966 ta qishloq aholi punktlari shahar posyolkalari toifasiga kiritildi. Mazkur qarorga muvofiq Qashqadaryo viloyatining 119 ta qishloqlari shaharchalar toifasiga o'tkazildi. Bu respublikadagi yangi shaharchalarining 12.2 foizini tashkil qiladi. Asosan qishloq xo'jaligi va agrosanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan Qarshi

cho‘li tumanlariga yangi shaharchalarning 45.8 foizi (54 ta) to‘g‘ri keladi. Jumladan, yangi shaharchalar Qarshi (15ta), Koson (14 ta), Kasbi (9 ta), Nishon (8 ta) Muborak (5ta) va Mirishkor (3 ta) tumanlari tashkil etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, viloyatning shaharchalarga aylantirilgan aholisi 5000 ming kishidan ortiq bo‘lgan qishloqlarining 65.2 foizi yuqoridagi tumanlarga tegishli. Bundan ko‘rinadiki, voxaning yangi o‘zlashtirilgan xududlarida aholining mujassamlashuv darajasi yuqori. Bunga Qarshi cho‘li tumanlari aholisining yer resurslari bilan yaxshi ta‘minlanganligi xam o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Jumladan viloyat hududining 41.2 foiziga teng bo‘lgan Qarshi cho‘li tumanlarida hozirgi vaqtda aholi jon boshiga o‘rtacha 0.38 gektar sug‘oriladigan yer maydoni to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich viloyatning qolgan qismida 0.10 gektarni, respublika bo‘yicha esa 0.13 gektarni tashkil qiladi.

2008 yil 1yanvar holati bo‘yicha viloyat jami qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarining 45.9 foizi, sug‘oriladigan yerlarining 65.5 foizi, haydaladigan yerlarning 44.5 foizi Qarshi cho‘li xissasiga tegishli bo‘lgan. Shuningdek jadval tahlilidan viloyat sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligi yerlaridagi ulushi 22.3 foizga teng bo‘lgani holda, Qarshi cho‘li tumanlarida bu miqdor 31.9 foizni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkich ayniqsa viloyat sug‘oriladigan yerlarining haydaladigan yerlardagi ulishida yanada yaqqolroq nomoyon bo‘ladi (mos ravishda 62.2; 94.3 %). O‘z navbatida Qarshi cho‘li tumanlari miqyosida ham yuqoridagi ko‘rsatkichlar turlicha. Masalan sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligi yerlaridagi ulushi Kasbi (91 %) tumanida eng yuqori bo‘lib, tuman yer resurslaridan nihoyatda intensiv foydalaniladi. Shuningdek Qarshi (66.8 %) va Koson (46.0 %) tumanlarida ham bu ko‘rsatkich katta. Aksincha Muborak (12.8 %), Mirishkor (21.0 %), Nishon (35.0 %) tumanlarida sug‘oriladigan yerlar salmog‘i ancha past. Bunga ushbu tumanlar maydonining asosiy qismini yaylovlar band etganligi sabab bo‘lgan.

Hozirgi vaqtda mintaqa yerlarni sug‘orishda Amudaryo asosiy o‘rin egallaydi. Cho‘l tumanlari qishloq xo‘jaligi uchun quyidagi yirik sug‘orish sistemalaridan foydalanilmoqda.

- 87 km uzunlikdagi Qarshi sug'orish sistemasi. U Nishon, Qarshi, Kasbi va qisman Koson tumanlaridagi xo'jaliklar yerini sug'oradi.

- 105 km uzunlikdagi Mirishkor (sobiq Ulyanov) sug'orish sistemasi Mirishkor, Nishon, Kasbi va Muborak tumanlaridagi xo'jaliklar yerini sug'oradi.

- 21,6 km uzunlikdagi Obihayot (sobiq Pervomaysk) sug'orish sistemasi Kasbi va qisman Qarshi tumanidagi xo'jaliklar yerini sug'oradi.

- Koson sug'orish sistemasi Koson tumani xo'jaliklarining yerini sug'oradi.

Qarshi cho'li - respublikaning asosiy paxta yetishtirish rayonlaridan biriga aylantirish maqsadida o'zlashtirila boshlangan edi. Shu boisdan Sobiq Ittifoq markaziy rayonlarini to'qimachilik sanoati xom ashyosi bilan ta'minlash uchun cho'lning o'zlashtirilgan hududlarida paxta yakka hokimligi avj oldirildi. Masalan, 1974 yilda 38 268 gektar maydondan 87,5 tonna paxta hosili olingan bo'lsa, 1978 yilda 75830 gektar maydondan 185,5 ming tonna, 1982 yilda 77294 gektar maydondan 188,7 ming tonna paxta hosili olindi. Yangi o'zlashtirilgan yerlarda paxta maydoni va yalpi hosildorligi muntazam o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib 1990 yilda 168,2 ming gektar maydondan 386.8 ming tonna hosil olingan.

Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng g'alla mustaqilligini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jalik ekinlar tarkibida paxta maydonlari qisqartirildi, natijada bu holat Qarshi cho'li tumanlarida yalpi paxta hosili kamayishiga olib keldi. Jumladan, 2003 yil 123,4 ming gektardan 293,7 ming tonna paxta hosili olindi, bu viloyat paxta maydonining 71,6 foizini, yalpi paxta hosilining 62,7 foizini tashkil qildi. Ushbu yilda mintaqada 110,1 ming gektardan 441,8 ming tonna g'alla hosili olindi, bu viloyat g'alla maydonining 42,5 foizini (sug'oriladigan maydon hisobiga 69,6 foizni), yalpi g'alla hosilining 61,7 foizni tashkil qildi. 2008 yilda 128,2 ming gektar paxta maydonidan 316,9 ming tonna paxta hosili olinindi. Bu viloyat paxta maydonining 73,3 foizini, yalpi paxta hosilining 68,7 foizini tashkil qildi. Ushbu yilda mintaqada 107,1 ming gektardan 536,3 ming tonna g'alla hosili olindi, bu viloyat g'alla maydonining 52 foizini (sug'oriladigan maydon hisobiga 64,7 foizni), yalpi g'alla hosilining 63 foizini tashkil qildi.

Yangi o'zlashtirilgan hududlarning tabiiy – mineral resurslaridan samarali foydalanish va mintaqada sanoat tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida yirik ishlab chiqarish obektlari qurildi. Jumladan, respublika yoqilg'i – energetika sanoatining asosiy korxonalari Muborak gaz konlari negizida ishga tushirilgan Muborak gazni qayta ishlash zavodi, gaz tarkibidan oltingugurtni ajratib oladigan Muborak oltingugurt zavodi, neft mustaqilligini ta'minlashda muhim o'rin tutgan Ko'kdumaloq neft konlari kompressor stansiyasi, Koson va Nishon tumanlaridagi neft-gaz konlari Qarshi cho'li sanoat salohiyatini belgilab bermoqda. Shuningdek 2004 yilda Sho'rtan gazi asosida ishlaydigan Talimarjon GRES ning birinchi navbati foydalanishga topshirildi. Mazkur yirik energetika markazi hozirgi vaqtda Qarshi cho'li tumanlarining aholisi va sanoat korxonalarini elektr energiyasi bilan ta'minlamoqda. Kelajakda ushbu GRES to'la quvvat bilan ishlasa nafaqat Qarshi cho'li, shuningdek, Janubiy iqtisodiy rayon va Turkmanistonning sharqiy xududlaridagi aholi manzilgohlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mintaqa asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashganligi bois mavjud tumanlarda yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini joylashtirish va rivojlantirish iqtisodiy geografik nuqtai-nazardan maqbul hisoblanadi. Shu sababdan sobiq Ittifoq davrida Koson yog'-ekstraksiya zavodi, Koson, Muborak, Yangi-Nishon, Beshkent shaharlarida oziq – ovqat va paxta tozalash korxonalari qurilgan. So'nggi yillarda respublika qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasi sifatida Qarshi cho'li aholi manzilgohlarida ham agrosanoat tarmoqlari korxonalarini barpo etishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Beshkent, Koson, Yangi-Nishon, Muborak shaharlari va Mug'lon, Jeynov, Xo'jaxayron kabi shaharchalarda yangi go'sht-sut, meva-konserva, non hamda qandolat mahsulotlari tayyorlovchi mini sexlar ishga tushirildi.

Mustaqqillik yillarda ijtimoiy sohada ham ko'plab ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Qarshi cho'lidagi yirik aholi manzilgohlarida yangi kollejlar, maktablar,

shifoxonalar, qishloq vrachlik punktlari, sport komplekslari barpo etildi. Aholining turmush sharoiti va ish bilan bandligi yildan – yilga yaxshilanib bormoqda.

Ammo Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish natijasida tashkil etilgan aholi manzilgohlarida, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ko‘plab qulayliklar yaratilganligi barobarida, hozirgi vaqtda bir qator tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ham mavjud. Respublikada yetishtiriladigan g‘allaning 8.7 va paxtaning 8.6 foizini beruvchi mazkur tumanlarda yerning meliorativ holati yomonlashib bormoqda. Bunda yopiq va ochiq drenaj-kollektorlarning yaroqsiz bo‘lib qolishi tuproq sho‘rlanishi va yuvilishiga, ixota daraxtzorlarinig kesib yuborilishi qum shamollari va shamol eroziyasining kuchayishiga olib kelmoqda. Bu holat voaha aholisining salomatligiga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifati va salmog‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Qishloq xo‘jalik yerlarining fermer xo‘jaliklariga bo‘lib berilishi, fermer xo‘jaliklarini yiriklashtirilishi oqibatida qishloq aholisining ma’lum bir qismi ishsiz bo‘lib qolishi natijasida mehnat resurslarining MDH mamlakatlariga noqonuniy migratsiyasi kuzatilmoqda. Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan tumanlarda sanoat, transport-kommunikatsiya, ishlab chiqarish infrastruktura tarmoqlarining yaxshi rivojlanmaganligi xorijiy investorlarning mazkur hududga bo‘lgan qiziqishlarini pasayishiga olib kelmoqda.

Yangi o‘zlashtirilgan tumanlarda yildan-yilga aholini muntazam tabiiy gaz, toza ichimlik suvi, elektr energiyasi, kommunal, sotsial xizmat ko‘rsatish obektlarini eski yoki ba’zilarining umuman yaroqsiz holatga tushib qolayotganligi mintaqada ijtimoiy-kommunal muammolarning keskinlashuviga sabab bo‘lyapti.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish chora – tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bunda Qarshi cho‘li tumanlari qishloq xo‘jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash, drenaj-kollektor tarmoqlarini foydali ish koeffitsiyentini oshirish, yangi ihota daraxtzorlarini barpo qilish, ichki transport yo‘llarini ta’mirlesh, kommunal xizmat ko‘rsatish sistemalar faoliyatini yanada rivojlantirish lozim. Bu esa ushbu hududda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining oshishiga, qishloq aholi punktlarida yengil va oziq-ovqat sanoati obektlarining joylashishiga, paxta xom ashyosini yetarli

ekanligini hisobga olib Nishon shahri va Mug'lon shaharchasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali to'qimachilik korxonalarini qurish maqsadga muvofiq, bu esa pirovard natijada mintaqaning sanoat salohiyatini yuksalishiga xizmat qiladi.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi voha aholisini ish bilan ta'minlashda, ularning turmush sharoitlarini yaxshilanib borishida muhim o'rin tutadi.

## **2.2. Qashqadaryo viloyatini qishloq xo'jalik nuqtai nazardan rayonlashtirish masalalari**

Iqtisodiy rayonlashtirish murakkab bo'lib, uning asosiy tamoyillari va omillari, maqsad va mohiyati turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatda o'zgarib turadi. Jumladan, bozor munosabatlariga o'tish bosqichida turgan mustaqil O'zbekistonda bu masalaga yangicha yondoshish talab etiladi. Bunday vaziyatda iqtisodiy rayonlar, eng avvalo, davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish jarayonini boshqarib borish yoki "tartibga solish" hamda, tizim-tarkib qoidasiga muvofiq, mamlakatlar iqtisodiy geografiyasini, milliy iqtisodiyotni mintaqalar turi orqali o'rganishda metodologik va metodik asos sifatida xizmat qiladi.

Iqtisodiy rayonlashtirishning eng qadimiy yo'nalishi qishloq xo'jaligi joylashtirishi bilan bog'liq. Sababi-qishloq xo'jaligining hududiy tashkil etish xususiyatlari, ya'ni uning arealsimonligi makroiqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ko'ra yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya tarixi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligini rayonlashtirish va joylashtirish tarixi bilan belgilanadi. O'zbekistonda kam bu boradagi ilmiy ishlar dastavval aynan ana shu tarmoqni joylashtirish va rayonlashtirish bilan boshlangan.

Rayonlashtirish nazariyalari asosida Qashqadaryo viloyati bir qancha olimlar tomonidan o'rganildi. Jumladan, o'tgan asrning 50-60 yillarida viloyat qishloq xo'jaligini N.V.Smironov va A.R.Xodiyevlar o'rganishgan. 1950-1960 yillarida

Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan yerlarining asosiy qismi tog' oldi tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan. Geograf olim N.V.Smirnov (1950) viloyatni iqtisodiy-geografik rayonlashtirishda quyidagi prinsiplarga asoslangan:

- Tarixiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari;
- Aholi zichligi va uning mehnat malakasi;
- Xalq xo'jaligi ixtisoslashuvi va rivojlanish istiqbollari.

Yuqoridagi prinsiplarni hisobga olgan holda, viloyat hududi 3 ta iqtisodiy geografik rayonga ajratilgan va ularning nomlanishida geografik o'rin hisobga olingan: Shimoli-sharqiy, Janubi-sharqiy va G'arbiy rayonlar.

Viloyat qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi jihatidan geograf olim R.A.Xodiyev (1962) tomonidan to'rtta Shimoli-sharqiy, O'rta Qashqadaryo, Janubi-g'arbiy iqtisodiy zonalariga ajratilgan.

Viloyatning yuqoridagi iqtisodiy zonalarga ajratilishida hududning tabiiy sharoiti va geografik jihatdan yaqinligi, qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvining ayrim jihatlari e'tiborga olingan. Ushbu rayonlashtirish asosida A.A.Islomov Qashqadaryo viloyati mehnat bozori shakllanishini o'rgangan (2004).

Geograf Yangiboyev M (1995) Qashqadaryo viloyatida aholi joylashuvidan kelib chiqib, istiqboldagi aholi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni ijobiy hal qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish maqsadida quyidagi 6 ta iqtisodiy rayonga ajratib o'rgangan:

1. Shimoli-sharqiy rayon (Kitob, Chiroqchi tumanlari);
2. Sharqiy rayon (Qamashi, Shahrisabz, Yakkabog');
3. Janubi-g'arbiy rayon (G'uzor, Dehqonobod, Nishon);
4. G'arbiy rayon (Mirishkor);
5. Markaziy rayon (Qarshi, Kasbi);
6. Shimoliy rayon (Koson, Muborak).

Aholi geografiyasi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'rganishda mazkur iqtisodiy geografik rayonlashtirish amaliy ahamiyatga ega. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, respublika aholi tabiiy harakatida yetakchi mavqega ega bo'lgan Qashqadaryo viloyati aholisini tadqiq qilish, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma

tarmoqlarini joylashtirish va mavjud mehnat resurslardan oqilona foydalanishda mazkur rayonlashtirish muhim o‘rin tutadi.

Ammo yuqoridagi geograf olimlar tomonidan qishloq xo‘jaligi va aholi joylashuvini e‘tiborga olgan holda amalga oshirilgan iqtisodiy rayonlashtirish o‘tgan asrning yetmishinchi yillaridan boshlab Qarshi cho‘lining majmualari o‘zlashtirilishi va respublika mustaqillikka erishgandan so‘ng agrar sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida o‘zining amaliy ahamiyatini biroz yo‘qotdi. Shuni hisobga olgan holda, viloyatni qishloq xo‘jalik nuqtai nazardan rayonlashtirishda hududning tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari jumladan, yer-suv resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasini e‘tiborga olib Qashqadaryo viloyatini quyidagi 3 ta qishloq xo‘jalik iqtisodiy rayoniga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Yuqori Qashqadaryo-Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘ tumanlari;
2. O‘rta Qashqadaryo-Qamashi, Chiroqchi, Dehqonobod, G‘uzor;
3. Quyi Qashqadaryo-Qarshi, Koson, Nishon, Kasbi, Mirishkor, Muborak tumanlari

Yuqori Qashqadaryo viloyat maydonining 15,8 foizini (4,5 ming kv.km.) tashkil qiladi. 2011 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, viloyat aholisining 30,6 foizi, jami qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarining 12,2 foizi, sug‘oriladigan yerlarning 14,7 foizi, haydaladigan yerlarning 12,5 foizi ushbu mintaqasi hissasiga tegishli. Mazkur mintaqada aholi mujassamlashuvining yuqoriligi, sug‘oriladigan yerlar salmog‘ining pastligi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘oriladigan yerlarning kam bo‘lishiga sabab bo‘lgan (0,096 gektar). Vaholanki, bu ko‘rsatkich viloyat bo‘yicha 0,20 gektarni tashkil etadi.

Tahlillar natijasidan viloyat sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligi yerlaridagi ulushi 22,3 foizga teng bo‘lgani holda, Yuqori Qashqadaryo mintaqasida bu miqdor 27,1 foizni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ko‘rsatkich ayniqsa viloyat sug‘oriladigan yerlarining haydaladigan yerlardagi ulushida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi (mos ravishda 62,2; 61,9%). O‘z navbatida, Yuqori Qashqadaryo tumanlari miqyosida ham yuqoridagi ko‘rsatkichlar turlicha. Masalan, sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligi

yerlaridagi ulushi Shahrisabzda 30,6 foiz, Yakkabog‘da 30,5 foiz, Kitob tumanida 19,8 foizga teng. Demak, Yuqori Qashqadaryo qishloq xo‘jalik rayoni asosan tog‘ va tog‘ oldi mintaqasida joylashganligi sababli sug‘oriladigan yerlar maydonining yetarli darajada emasligi bilan ajralib turadi. mintaqada suv resurslari bilan eng yaxshi ta‘minlangan.

Yuqori Qashqadaryo mintaqasi tabiiy sharoiti, jumladan, reliefi, iqlimi, agroiqlimiy resurslari, yer-suv resurslari bilan ta‘minlanganlik darajasiga ko‘ra o‘ziga xos mintaqa hisoblanib, tog‘ hududida joylashganligi, suv resurslarining yetarliligi, sug‘oriladigan yerlarning kamligi, qishloq xo‘jaligida asosan mevasabzavotchilik, uzumchilik, chorvachilik tarmoqlariga ixtisoslashuvi bilan alohida ajralib turadi.

Ayni vaqtda O‘rta Qashqadaryo va xususan Quyi mintaqada tabiiy sharoit- yer usti tuzilishi, namgarchilik va suv resurslarining ta‘siri natijasida o‘zgacha tabiiy xo‘jalik rayoni shakllangan. Hududda yangi yerlarni o‘zlatirish asosida vujudga kelgan agrosanoat majmui bilan birga respublikamiz milliy iqtisodiyoti va iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yoqilg‘i-energetika, gaz-kimyoy majmualari kam rivojlanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi sharoitda mamlakatimiz mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda iqtisodiy geografiya fanining o‘zak tushunchasi hisoblangan iqtisodiy rayonlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda qayd etish mumkinki, agar rayonlashtirish masalalari respublika doirasida ozmi-ko‘pmi hal qilingan bo‘lsa, viloyatlar miqyosida bu muammo deyarli o‘rganilmagan (Soliyev A., Esanov B., 2005). Shu boisdan viloyatlar doirasida iqtisodiy geografik rayonlarni ajratish mezonlarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berish iqtisodiy geografiya fanining muhim ilmiy yo‘nalishlaridan sanaladi.

### **2.3. Quyi Qashqadaryo mintaqasi sug'oriladigan yerlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari**

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi va qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri bu yer resurslaridan okilona foydalanish va uni muhofaza qilishdan iborat. Bu muammo siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. Uni hal etish maksadida qabul qilingan farmonlar, konunlar va boshqa meyoriy hujjatlar yer munosabatlarini qanday tashkil etish, yerga qanday munosabatda bo'lish zarurligini ko'rsatib berdi.

2011 yil 1yanvar holati bo'yicha viloyat jami qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarining 45.9 foizi, sug'oriladigan yerlarining 65.5 foizi, haydaladigan yerlarning 44.5 foizi Quyi Qashqadaryo mintaqasi (Kasbi, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Qarshi tumanlari) hissasiga tegishli bo'lgan. Shuningdek tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyat sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligi yerlaridagi ulushi 22.3 foizga teng bo'lgani holda, mintaqa tumanlarida bu miqdor 31.9 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich ayniqsa viloyat sug'oriladigan yerlarining haydaladigan yerlardagi ulushida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi (mos ravishda 62.2; 94.3 %). O'z navbatida Quyi Qashqadaryo mintaqa tumanlari miqyosida ham yuqoridagi ko'rsatkichlar turlicha. Masalan, sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligi yerlaridagi ulushi Kasbi (91 %) tumanida eng yuqori bo'lib, tuman yer resurslaridan nihoyatda intensiv foydalaniladi. Shuningdek Qarshi (66.8 %) va Koson (46.0 %) tumanlarida ham bu ko'rsatkich katta. Aksincha Muborak (12.8 %), Mirishkor (21.0 %), Nishon (35.0 %) tumanlarida sug'oriladigan yerlar salmog'i ancha past. Bunga ushbu tumanlar maydonining asosiy qismini yaylovlar band etganligi sabab bo'lgan.

Viloyat hududining 41.2 foiziga, aholisining 31,7 foiziga teng bo'lgan Quyi Qashqadaryo mintaqasida hozirgi vaqtda aholi jon boshiga o'rtacha 0.38 gektar sug'oriladigan yer maydoni to'g'ri keladi. Bu viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori bo'lib (0,20 gektar), mintaqada dehqonchilik tarmog'ini intensiv rivojlantirish, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Qarshi choʻlini oʻzlashtirish munosabati bilan mexnat resurslariga boʻlgan ehtiyoj viloyatning Kitob, Yakkabogʻ, Dehqonobod, Qamashi, Gʻuzor tumanlarining togʻli qishloq aholisini koʻchirib keltirish hisobidan qondirildi. Bunda qoʻriq yerlarda yangidan bunyod etilgan qishloq aholi manzilgohlarining yer-suv resurslari va ijtimoiy infrastruktura obektlari bilan yaxshi taʼminlanganligi hamda ushbu hududlarga aholining koʻchib kelishini ragʻbatlantirish maqsadida ish haqlarining yuqori qilib belgilanganligi muhim omil boʻlgan. Natijada mintaqa aholisi muntazam oʻsish koʻrsatkichiga ega boʻlib keldi. Masalan 1979 yilgi Sobiq Ittifoq aholi roʻyxati maʼlumotlariga koʻra Qarshi choʻli tumanlarida 339.4 ming kishi yoki viloyat umumiy aholisining 30.2 foizi yashagan boʻlsa, oradan qirq yil oʻtgandan soʻng mintaqa aholisi 456.2 ming kishi koʻpayib, viloyat aholisining 31.7 foizini tashkil etdi. 2009 yil Oʻzbekistonda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb eʼlon qilinishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009 yil 13 martda “Oʻzbekiston Respublikasi aholi punktlarining maʼmuriy – hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora tadbirlar toʻgʻrisida” gi qarori qabul

**QASHQADARYO VILOYATI YER RESURSLARI (2011 yil 1yanvar holati)**

№	Tumanlar nomi	Qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar ga.			Haydaladigan yer ga.		
		Jami	Shundan sug‘oriladigani	Sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligi yerlaridagi ulushi (%)	Jami	Shundan sug‘oriladigani	Sug‘oriladigan yerning haydaladigan yerlaridagi ulushi (%)
1	Kasbi	51099	46323	91.0	44452	44452	100.0
2	Koson	143660	66136	46.0	73117	61234	83.7
3	Qarshi	64817	43325	66.8	43944	40804	92.8
4	Mirishkor	276826	58247	21.0	55066	55066	100.0
5	Muborak	250216	32104	12.8	33355	31375	94.0
6	Nishon	153468	53650	35.0	51718	51683	99.9
<b>Quyida Qashqadaryo mintaqasi bo‘yicha</b>		<b>940086</b>	<b>299785</b>	<b>31.9</b>	<b>301652</b>	<b>284614</b>	<b>94.3</b>
7	G‘uzor	228764	32571	14.2	61700	31099	50.4
8	Dehqonobod	255568	2324	0.9	44698	2016	4.5
9	Qamashi	133065	29880	22.5	62588	28043	44.8
10	Kitob	81123	16072	19.8	21278	9935	46.7
11	Chiroqchi	240171	25270	10.5	121605	22746	18.7
12	Shaxrisabz	71771	21994	30.6	24637	18052	73.3
13	Yakkabog‘	96270	29438	30.6	39057	24654	35.7
<b>Viloyat bo‘yicha</b>		<b>2046818</b>	<b>457334</b>	<b>22.3</b>	<b>677215</b>	<b>421159</b>	<b>62.2</b>

Manba: Albom selskoxozyaystvennix kart Respubliki Karakalpakstan i oblastey Uzbekistana.

qilindi. Ushbu qarorga binoan respublikadagi 966 ta qishloq aholi punktlari shahar posyolkalari toifasiga kiritildi. Mazkur qarorga muvofiq Qashqadaryo viloyatining 119 ta qishloqlari shaharchalar toifasiga o'tkazildi. Bu respublikadagi yangi shaharchalarining 12.2 foizini tashkil qiladi. Asosan qishloq xo'jaligi va agrosanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan Qarshi cho'li tumanlariga yangi shaharchalarning 45.8 foizi (54 ta) to'g'ri keladi. Jumladan, yangi shaharchalar Qarshi (15ta), Koson (14 ta), Kasbi (9 ta), Nishon (8 ta) Muborak (5ta) va Mirishkor (3 ta) tumanlari tashkil etadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, viloyatning shaharchalarga aylantirilgan aholisi 5000 ming kishidan ortiq bo'lgan qishloqlarining 65.2 foizi yuqoridagi tumanlarga tegishli. Bundan ko'rinadiki, voxaning yangi o'zlashtirilgan xududlarida aholining mujassamlashuv darajasi yuqori. Bunga Qarshi cho'li tumanlari aholisining yer resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi xam o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan viloyat hududining 41.2 foiziga teng bo'lgan Qarshi cho'li tumanlarida hozirgi vaqtda aholi jon boshiga o'rtacha 0.38 gektar sug'oriladigan yer maydoni to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich viloyatning qolgan qismida 0.10 gektarni, respublika bo'yicha esa 0.13 gektarni tashkil qiladi.

Mintaqa sug'oriladigan yerlaridan foydalanishni optimallashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- mintaqa qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash, drenaj-kollektor tarmoqlarini foydali ish koeffitsiyentini oshirish;
- dehqonchilik madaniyatini yuqori darajaga ko'tarish, optimallashtirilgan fermer xo'jaliklarida marketing va menejment xizmatlarini yo'lga qo'yish;
- yangi ihota daraxtzorlarini barpo qilish, ichki transport yo'llarini ta'mirlash, kommunal xizmat ko'rsatish sistemalar faoliyatini yanada rivojlantirish;
- intensivlashtirish natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish;
- bo'sh ish o'rinlarini yaratish maqsadida qishloq aholi punktlarida yengil va oziq-ovqat sanoati obektlarini joylashtirish;

- paxta xom ashyosini yetarli ekanligini hisobga olib Nishon shahri, Mirishkor va Mugʻlon shaharchalarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali toʻqimachilik korxonalarini qurish.

#### **2.4. Quyi Qashqadaryo mintaqasida dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirish masalalari**

Mamlakatimiz mintaqaviy iqtisodiyotining va agrosanoat majmuasining yetakchi tarmogʻi hisoblangan qishloq xoʻjaligini hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi bevosita joyning tabiiy sharoitiga, iqlimi va ayniqsa yer-suv resurslariga chambarchas bogʻlangan. Shu jihatdan olib qaralganda Qashqadaryo viloyati yer resurslarini hajmi, hududiy taqsimlanishi, turlari va ulardan foydalanishning mintaqaviy xususiyatlarini iqtisodiy geografik tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, mavjud yer fondi tarkibida qishloq xoʻjaligi uchun yaroqli yerlarning jumladan, sugʻoriladigan yerlar hissasining koʻpligi, tabiiyki, bu yerda qishloq xoʻjaligining dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi.

2011 yil 1yanvar holati boʻyicha viloyat jami qishloq xoʻjaligiga yaroqli yerlarining 45.9 foizi, sugʻoriladigan yerlarining 65.5 foizi, haydaladigan yerlarning 44.5 foizi Quyi Qashqadaryo mintaqasi (Kasbi, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Qarshi tumanlari) hissasiga tegishli boʻlgan. Shuningdek tahlillar shuni koʻrsatadiki, viloyat sugʻoriladigan yerlarning qishloq xoʻjaligi yerlaridagi ulushi 22.3 foizga teng boʻlgani holda, mintaq tumanlarida bu miqdor 31.9 foizni tashkil etganligini koʻrishimiz mumkin. Bu koʻrsatkich ayniqsa viloyat sugʻoriladigan yerlarining haydaladigan yerlardagi ulushida yanada yaqqolroq namoyon boʻladi (mos ravishda 62.2; 94.3 %). Oʻz navbatida Quyi Qashqadaryo mintaq tumanlari miqyosida ham yuqoridagi koʻrsatkichlar turlicha. Masalan sugʻoriladigan yerlarning qishloq xoʻjaligi yerlaridagi ulushi Kasbi (91 %) tumanida eng yuqori boʻlib, tuman yer resurslaridan nihoyatda intensiv foydalaniladi. Shuningdek Qarshi (66.8 %) va Koson (46.0 %) tumanlarida ham bu koʻrsatkich katta. Aksincha Muborak (12.8 %), Mirishkor (21.0 %), Nishon (35.0

%) tumanlarida sugʻoriladigan yerlar salmogʻi ancha past. Bunga ushbu tumanlar maydonining asosiy qismini yaylovlar band etganligi sabab boʻlgan. Viloyat hududining 41.2 foiziga, aholisining 31,7 foiziga teng boʻlgan Quyi Qashqadaryo mintaqasida hozirgi vaqtda aholi jon boshiga oʻrtacha 0.38 gektar sugʻoriladigan yer maydoni toʻgʻri keladi. Bu viloyat koʻrsatkichidan ancha yuqori boʻlib (0,20 gektar), mintaqada dehqonchilik tarmogʻini intensiv rivojlantirish, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Qarshi choʻli - respublikaning asosiy paxta yetishtirish rayonlaridan biriga aylantirish maqsadida oʻzlashtirila boshlangan edi. Shu boisdan Sobiq Ittifoq markaziy rayonlarini toʻqimachilik sanoati xom ashyosi bilan taʼminlash uchun choʻlning oʻzlashtirilgan hududlarida paxta yakka hokimligi avj oldirildi. Masalan, Quyi Qashqadaryo mintaqasida 1974 yilda 38 268 gektar maydondan 87,5 tonna paxta hosili olingan boʻlsa, 1978 yilda 75830 gektar maydondan 185,5 ming tonna, 1982 yilda 77294 gektar maydondan 188,7 ming tonna paxta hosili olindi. Yangi oʻzlashtirilgan yerlarda paxta maydoni va yalpi hosildorligi muntazam oʻsish koʻrsatkichiga ega boʻlib 1990 yilda 168,2 ming gektar maydondan 386.8 ming tonna hosil olingan.

Respublika mustaqillikka erishgandan soʻng gʻalla mustaqilligini taʼminlash maqsadida qishloq xoʻjalik ekinlar tarkibida paxta maydonlari qisqartirildi, natijada bu holat Qarshi choʻli tumanlarida yalpi paxta hosili kamayishiga olib keldi. Jumladan, 2003 yil 123,4 ming gektardan 293,7 ming tonna paxta hosili olindi, bu viloyat paxta maydonining 71,6 foizini, yalpi paxta hosilining 62,7 foizini tashkil qildi. Ushbu yilda mintaqada 110,1 ming gektardan 441,8 ming tonna gʻalla hosili olindi, bu viloyat gʻalla maydonining 42,5 foizini (sugʻoriladigan maydon hisobiga 69,6 foizni), yalpi gʻalla hosilining 61,7 foizni tashkil qildi. 2011 yilda 128,2 ming gektar paxta maydonidan 316,9 ming tonna paxta hosili olindi. Bu viloyat paxta maydonining 73,3 foizini, yalpi paxta hosilining 68,7 foizini tashkil qildi. Ushbu yilda mintaqada 107,1 ming gektardan 536,3 ming tonna gʻalla hosili olindi, bu viloyat gʻalla maydonining 52 foizini

(sugʻoriladigan maydon hisobiga 64,7 foizni), yalpi gʻalla hosilining 63 foizini tashkil qildi.

1991 - 2011 yillar davomida mintakada bugʻdoy ekiladigan ekin maydonlari 3 martaga, yalpi hosili esa 7,1 martaga koʻpaydi, hosildorlik 17,3 sentnerdan 39,7 sentnerga yetdi. Bugʻdoy viloyatning barcha tumanlarida yetishtirilsada, uning asosiy qismi Quyi Qashqadaryo mintaqasiga jumladan, Mirishkor tumaniga, jami bugʻdoy ekin maydonlarining 11,7%i, bugʻdoy yalpi hosilining 15,2%i, Nishon 10,2 va 13,5, Qamashi 10,4 va 7,5, Koson 9,3 va 12, Qarshi 7,5 va 9,7%i toʻgʻri keladi. Bugʻdoy hosildorligi boʻyicha Nishon (52,4 sentner), Mirishkor (51,4). Koson (50,7), Qarshi (50,7), Kasbi (49,7), tumanlari ajralib turadi.

Qashqadaryo viloyati qishloq xoʻjaligining yana bir muhim tarmogʻi kartoshka, poliz, sabzavotchilik hisoblanadi. Viloyatda kartoshka, sabzavot, poliz yetishtirishning imkoniyatlari keng. Jumladan, tabiiy sharoitning qulayligi, vegetatsiya davrining uzunligi mazkur ekinlardan yuqori hosil olishni taʼminlaydi. Biroq, ushbu soha Quyi Qashqadaryo mintaqasida yetarlicha rivojlantirilmagan. Shuning uchun mintaqa fermer xoʻjaliklarining ayrimlarini aynan kartoshka, meva-sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish maqsadga muvofikdir.

Respublikada yetishtiriladigan gʻallaning 8,7 va paxtaning 8,6 foizini beruvchi mazkur mintakada yerning meliorativ holati yomonlashib bormoqda. Bunda yopiq va ochiq drenaj-kollektorlarning yaroqsiz boʻlib qolishi tuproq shoʻrlanishi va yuvilishiga, ixota daraxtzorlarinitsng kesib yuborilishi qum shamollari va shamol eroziyasining kuchayishiga olib kelmoqda. Bu holat qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining sifati va salmogʻiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Qishloq xoʻjalik yerlarining fermer xoʻjaliklariga boʻlib berilishi hamda fermer xoʻjaliklarini yiriklashtirilishi oqibatida qishloq aholisining maʼlum bir qismi ishsiz boʻlib qolmoqda va natijada mehnat resurslarining MDH mamlakatlariga noqonuniy migratsiyasi kuzatilmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish chora – tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bunda Quyi Qashkadaryo

mintakasi qishloq xo'jaligi dehqonchilik tarmog'ining hududiy tarkibini takomillashtirishda mavjud agroiklimiy resurslardan, tabiiy resurslardan, xususan, yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash, drenaj-kollektor tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish, yangi ihota daraxtzorlarini barpo qilish, fermer xo'jaliklari negizida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan kichik korxonalarni tashkil qilish lozim.

Mintaqada shakllangan irrigatsiya-melioratsiya infratuzilmasi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlanishi uchun asosiy o'zak vazifasini bajarib beradi. Natijada, hududda qishloq xo'jaligi tarmoqlari – *dehqonchilik va chorvachilikni* intensiv rivojlantirish shart-sharoitlari yaratildi.

Quyida Qashqadaryo sug'orma dehqonchiligi, asosan, paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan. Xususan, 2012 yil holatida mintaqada 3263 ta fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, viloyat fermer xo'jaliklarining 45,7 foizini tashkil qiladi. Fermer xo'jaliklarining 87,9 foizi paxta va g'allachilikka, 3,7 foizi chorvachilikka, 1,3 foizi sabzavot va polizchilikka, 6,6 foizi bog'-uzumchilikka, 0,5 foizi aralash tarmoqlarga ixtisoslashgan (-jadval). Qishloq tumanlari fermer xo'jaliklari ixtisoslashuvi ham o'ziga xos: paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashuv Mirishkor (93,1 %), Koson (92,5 %) va Kasbi (90,8 %) tumanlarida eng yuqori ko'rsatkichga ega. Qolgan tumanlarda ham nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd qilinadi: Qarshi tumanida 85,2 foiz, Nishon tumanida 81,4 foiz, Muborak tumanida 78,1 foiz.

Qishloq xo'jaligining chorvachilik tarmog'iga ixtisoslashuv jihatidan Muborak (9,7 %) va Koson (5,4 %) tumanlari yetakchilik qiladi. Qolgan tumanlarda bu ko'rsatkich quyidagicha: Qarshi tumanida 4,2 foiz, Nishonda 3,0 foiz, Kasbida 2,0 foiz, Mirishkor tumanida 1,6 %. Sabzavot va polizchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari salmog'i Muborak (3,1 %) va Nishon (2,8 %) tumanlarida yuqoriroq, Kasbi tumanida u 1,7 foiz, Qarshida 0,6 foiz, Mirishkorda 0,5 foizga teng bo'lsa, Koson tumanida esa bunday xo'jaliklar umuman yo'q. Bog'dorchilik-uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining ulushi Nishon


(11,8 foiz), Qarshi (9,8 foiz), Muborak (9,1 foiz) tumanlarida nisbatan yuqori, Kasbi (5,0 foiz), Mirishkor (4,6 foiz), Koson (1,8 foiz) tumanlarida esa u pastroq. Shunday qilib, ko‘rinib turibdiki, mintaqa fermer xo‘jaliklari ixtisoslashuvida paxta va g‘allachilikni o‘rni katta bo‘lib, kelajakda dehqonchilikning boshqa tarmoqlariga ixtisoslashuvni kengaytirish talab etiladi.

Quyi Qashqadaryo 2011 yilda viloyatda yetishtirilgan *paxtaning* 76,3 foizini (307,7 ming tonna) yetkazib berdi. O‘rtacha hosildorlik 25,9 s/ga ni tashkil qilib, viloyat o‘rtachasidan (25,1 s/ga) yuqoriroq. Paxta hosildorligini yillar bo‘yicha tahlil qilinganda, 2000 yilda 17,8 s/ga, 2005 yilda 26,5, 2010 yilda 26,2 s/ga ni tashkil qilganini qayd etish mumkin (-chizma). Hosildorlik ko‘rsatkichlari iqlim sharoitlarining o‘zgarishi, suv tanqisligi asosida yillar bo‘yicha barqaror emas. Mintaqa jami paxta hosilining asosiy qismi Koson tumani (22,2 %), Kasbi (20,1 %) va Mirishkor (17,0 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Paxta hosildorligi bo‘yicha Kasbi tumani nafaqat mintaqada, balki viloyatda ham yetakchi hisoblanadi. So‘nggi yillarda jahon bozorida tabiiy tola – paxtaga bo‘lgan talabning oshishi mintaqada paxta yetishtirishni hosildorlikni oshirish hisobiga ko‘paytirishni vazifa qilib qo‘yadi.

Respublikada mustaqillikning dastlabki yillarida *g‘alla* mustaqilligini ta‘minlashda dastlabki islohotlar o‘tkazildi; g‘alla ekin maydonlari kengaytirildi va hosildorlik oshirildi. Bu xususda, Quyi Qashqadaryoda o‘ziga xos g‘allachilik maktabi yaratildi; 2011 yilda mintaqada 462,3 ming tonna g‘alla yetishtirilib, bu viloyat g‘allasining 64,9 foizini tashkil qildi. G‘allaning hosildorlik ko‘rsatkichlari ham iqlim sharoitiga mos holda o‘zgarishlarga ega: 2000 yilda bu ko‘rsatkich 17,1 s/ga, 2005 yilda 50,4, 2010 yilda 55,8, 2011 yilda 46,8 s/ga ga teng (-chizma).

Mintaqa g‘alladan faqat sug‘oriladigan maydonlar hisobidan yuqori hosil olinishi bilan viloyatning boshqa hududlaridan ajralib turadi. Chunki, Yuqori va O‘rta Qashqadaryoda lalmi g‘allakorlik katta maydonni egallaydi. Quyi Qashqadaryoda 2011 yilda yetishtirilgan g‘alla hosilining tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi: Mirishkor tumanining ulushi 20,5

foiz, Koson 19,4, Nishon 19,1, Qarshi va Kasbi tumanlarining ulushi 15 foizdan, Muborak tumanining hisyasi esa 10,0 foizga teng bo'ldi.



Chizma viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida chizildi.

Demak, mintaqada agroindustrial siklning shakllanishida dehqonchilik tarmog'ining hisyasi yuqori bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini *qayta ishlash sanoatini* rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish xususiyatiga ega. Quyi Qashqadaryoda paxtani qayta ishlash korxonalari Koson, Mirishkor, Kasbi, Nishon va Qarshi tumanlarida joylashgan. Bu zavodlar mintaqada yetishtirilgan hosilni tozalash quvvatiga ega. Biroq, bu yerda paxta xom ashyosi asosida ishlaydigan to'qimachilik korxonalari yetarli emas, faqatgina Qarshi shahrida "Kashteks" to'qimachilik korxonasi faoliyat ko'rsatadi, xolos. Iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish maqsadida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini ko'tarish uchun mintaqada to'qimachilik korxonalarini ko'paytirish energiya ishlab chiqarish siklining bu muhim zanjiri (bo'g'ini)ni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Paxta chigitini qayta ishlash asosidagi yog‘-ekstraksiya zavodlari Koson va Qarshi shaharlarida, un kombinati Qashqadaryo shaharchasida joylashgan. Mintaqa asosan paxta va g‘alla yetishtirishga ixtisoslashganligi sababli meva va sabzavotni qayta ishlaydigan korxonalar mavjud emas. Kelajakda aholi sonining o‘sishi bilan oziq- ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab oshib boradi, binobarin meva, sabzavot va poliz ekinlari maydonini kengaytirish hamda qayta ishlash sanoati korxonalarini ko‘paytirish zarur. Bu esa, o‘z navbatida, dehqonchilik industrial siklning rivojlanish imkoniyatini ta’minlaydi.

## XULOSA

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Quyi Qashqadaryo mintaqasi qishloq xo'jaligini rivojlanishi va ixtisoslashuvining geografik jihatlarini bo'yicha qilingan malakaviy ishning quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

1. Qashqadaryo viloyatini qishloq xo'jaligi nuqtai-nazaridan rayonlashtirish (A.Soliyev, M.Fayzullayev) havza tamoyili asosida Yuqori, O'rta, Quyi Qashqadaryo mintaqalariga ajratilgan. Yuqori Qashqadaryo mintaqasi ma'muriy jihatdan 3 ta tumanni o'z ichiga oladi. Mintaqa yer fondi 1183 ming gektarni tashkil qilib, viloyat yer fondini 41,2 %ini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan jami yer maydoni 1106,2 ming gektarni tashkil qilib, viloyatdagi ulushi 45,9 %ni tashkil qiladi.

2. Quyi Qashqadaryo mintaqasining yer fondi 95,5 %dan asosiy ishlab chiqarish fondlari sifatida foydalaniladi. Mintaqada mavjud yerlarning asosiy qismi qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jaligi yerlari hisoblanadi. Bu viloyat qishloq xo'jalik salohiyatining yuqoriligidan va geografik jihatdan joylashuvining o'ziga xosligidan dalolat beradi.

3. Quyi Qashqadaryo mintaqasi tumanlari miqyosida sug'oriladigan yerlarning ko'rsatkichlar turlicha. Masalan, sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligi yerlaridagi ulushi Kasbi (91 %) tumanida eng yuqori bo'lib, tuman yer resurslaridan nihoyatda intensiv foydalaniladi. Shuningdek Qarshi (66.8 %) va Koson (46.0 %) tumanlarida ham bu ko'rsatkich katta. Aksincha Muborak (12.8 %), Mirishkor (21.0 %), Nishon (35.0 %) tumanlarida sug'oriladigan yerlar salmog'i ancha past. Bunga ushbu tumanlar maydonining asosiy qismini yaylovlar band etganligi sabab bo'lgan.

4. Quyi Qashqadaryo mintaqasi qishloq xo'jalik yerlari tarkibini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, uning asosiy qismi yaylov va pichanzorlar xissasiga to'g'ri keladi. mazkur turdagi yerlarning jami qishloq xo'jaligi yerlaridagi salmog'i 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich 50,0 %ga teng bo'ldi. Mintaqa qishloq xo'jaligida haydaladigan yerlar o'ziga xos muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning hajmi qishloq

xo'jaligi yerlaridagi ulushi 40,0 %ini tashkil qiladi. 2010 yilda haydaladigan yerlarning 95,7 % sug'oriladigan yerlar hisobiga to'g'ri keladi.

5. Sug'oriladigan yerlarning haydaladigan yerlar hajmidagi salmog'i mintaqa tumanlari bo'yicha bir-biridan farq qilib, bu eng avvalo, tumanlarning o'ziga xos geografik, tabiiy iqlim sharoitlariga bog'liq. Kasbi, Mirishkor, Nishon tumanlarida sug'oriladigan yerlarning jami haydaladigan yerladagi ulushi 100,0 % ni tashkil qilsa, Koson tumanida 85,8 %, Muborak tumanida 95,9 %ni tashkil etadi. Bu viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqoridir (62,4 %).

6. Quyi Qashqadaryo mintaqasi viloyat qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvida o'ziga xos o'ringa ega. Jumladan, viloyat paxtasining 70 foizi, g'allaning 66 foizi, kartoshkaning 9,0 foizi, sabzavotning 28,0 foizi, poliz mahsulotlarining 44,0 foizini beradi.

7. Quyi Qashqadaryo mintaqasida qishloq xo'jalik mahsulotlari asosan fermer xo'jaliklari tomonidan yaratilgan. Mintaqadagi Qarshi tumanida 642 ta, Koson tumanida 724 ta, Mirishkor tumanida 857 ta, Muborakda 319 ta, Nishonda 823 ta, Kasbi tumanida 600ta fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda.

9. Quyi Qashqadaryo mintaqasida yer resurslari sifatini yaxshilash va tiklash uchun bizning fikrimizcha, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq;

- almashlab ekish tizimini amalda keng joriy etish;
- urug'chilik va selektsiya ishlarini tuproq sifatini tiklovchi va unga zarar keltirmaydigan yo'nalishlarga qaratish;
- ekinlarni optimal o'g'itlari va bunda ilmiy asoslangan, mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqib meyorlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- ilg'or irrigatsiya texnologiyalarini qo'llash;
- yerlarga ishlov berishning zamonaviy uslublariga e'tiborni qaratish:
- mulk egalariining ishlab chiqarish natijasida egalik qilish huquqlari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish ilg'or sug'orish texnologiyalarni joriy qilishning amaliy dasturlarini ishlab chiqish va qo'llash:

- sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini muntazam nazorat qilib borish va amaliy tadbirlarni amalga oshiradigan tashkilotlar ishlarini kuchaytirish.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Islom Karimovning 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012-yilga mo'ljallangan eng muhim ustivor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi 2012-yil 20-yanvar №7
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.,2009
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T, O'zbekiston 1995.
5. Karimov I.A. Qishloq xo'jalik taraqqiyoti farovonlik manbai. T, O'zbekiston,1994.
6. Abdig'aniyev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T,TDIU, 2004.
7. Ahmadaliyev Y.I. Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishning hududiy tashkil etilishini takomillashtirish. (Farg'ona vodiysi misolida), Geografiya fan. doktori ilmiy darajasini olishi u-n diss. Avtoref. T., 2007.
8. Aminov F. B. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning hududiy xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqt, fan nomzodi ilmiy dar-ni olish u – n diss. Avtoref. T.,2004.
9. Fayzullayev M.A. Qashqadaryo sug'oriladigan yerlaridan samarali foydalanish masalalari. //O'zbekiston geografiya jamiyati AXBOROTI 28 jild T.: 2007
10. O'zbekiston qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar atamalari lug'ati. Toshkent-2007.
11. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida moliyaviy hisobot. T 2008.
12. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Uslubiy qo'llanma. Qarshi.: 1994

13. Qashqadaryo viloyati pasporti 2006-2010 yy.
14. Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili. Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2009 yil 26 avgustdagi PQ – 1046 – sonli qarori
15. Rizayev M. T. Agrasanoat kompleksini rivojlantirish. –T:”Mehnat”, 1986.
16. Ro'ziyev A. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 1990.
17. To'xliyev N. O'zbekiston respublikasi iqtisodiyoti. T, 1997.
18. Yer kodeksi.
19. Yer tog'risidagi qonun.
20. Ziyoviddinov SH. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llama. T, TDIU, 2004.
21. Kryuchikov V. G. Territorialnaya organizatsiya selskogo xozayyastva . M, 1976.
22. Rakitnikov A. Geografiya selskogo xozayyastvo. M, 1975.
23. Saliyev A., Fayzullayev M. Formirovaniye prirodno-xozyaystvennix sistem Karshinskoy stepi. Problemi osvoyeniye pustin 1-2. Ashxabad -2010

#### **Foydalanilgan internet web sahifalari**

[www.google.com](http://www.google.com).

[www.referat.uz](http://www.referat.uz). ilmiy maqolalar, ilmiy tadqiqotlar ishlari to'g'risidagi mavzuga doir maqolalarni topish mumkin.

[www.ziyo.net](http://www.ziyo.net).

O'zbekiston yoshlari internitda maxsus tarmoq

[www.ilm.uz](http://www.ilm.uz).

mamalakat ta'lim tizimidagi ilmiy yangilik, ilmiy ishlar, tadqiqot ishlari ifodalangan.

[www.Bilimdon.uz](http://www.Bilimdon.uz).

turli mavzular, yo'nalishlar, sohalar ma'lumotlari keltirilgan web sayt.

[www.gow.uz](http://www.gow.uz).

Respublika oiliy o'quv yurtlari to'g'rida ma'lumotlar keltirilgan.

ILOVALAR

**Quyida Qashqadaryo mintaqasi yer fondining tuzilishi (2011 yil)**

№	Tumanlar	Umumiy maydoni ming. ga	Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan jami yer maydoni ming. ga	Shundan ming ga				Yer fondid an foydala nish koeffits ienti
				Haydaladig an yerlar	Yaylovlar	Meva, uzum va ko'p yillik	Aholi tomorqa	
	<b>Viloyat bo'yicha:</b>	2856.8	2461.7	677.3	1315.2	32.8	73.8	86.1
1	Qarshi	91,7	85,8	44,0	18,7	2,6	5,5	93,5
2	Kasbi	73,5	70,9	43,8	4,5	2,2	4,9	96,4
3	Koson	187,2	183,3	73,1	65,6	2,4	8,6	97,9
4.	Mirishkor	312,5	306,7	54,8	218,8	1,2	4,4	98,1
5.	Nishon	211.1	177,7	50,8	100	1,9	2,8	84,1
6.	Muborak	307,0	281,8	33,3	216,1	0,8	2,3	91,8
	<b>Quyida Qashqada ryo</b>	1183,0	1106,2	299,8	623,7	11,1	28,5	93,5
	<b>Viloyatga nisb.% hisobida</b>	40,0	40,0	40,0	50,0	30,0	40,0	110,0
<b>Ma'lumotlar Viloyat yer resurslari boshqarmasidan olingan</b>								

## Qashqadaryo viloyati tumanlarida sug'oriladigan va lalmi yerlar hajmining o'zgarishi (ming gektar)

Tumanlar	1990 yil			2011 yil		
	Sug'oriladigan yerlar	Lalmi yerlar	Sug'oriladigan yerlarning haydaladigan yerlardagi ulushi	Sug'oriladigan yerlar	Lalmi yerlar	Sug'oriladigan yerlarning haydaladigan yerlardagi ulushi
Viloyat boyicha	416,4	254,2	62,0	417,1	251,5	62,4
Qarshi	36,3	4,7	88,5	40,2	3,1	92,6
Kasbi	41,0	-	100	31,9	-	100
Koson	51,8	7,9	86,8	60,9	10,1	85,8
Mirishkor	60,2	-	100	54,1	-	100
Nishon	51,6	-	100	54,1	-	100
Muborak	30,7	2,0	93,9	47,1	2,0	95,9
Quy Qashqadaryo	271,6	14,6	94,8	288,3	15,2	95,7
Viloyatga nisb.% hisobida	65,0	6,0	153,0	69,0	6,0	103,0

Manba: Qashqadaryo viloyati yer resurslari boshqarmasining hisoboti asosida hisoblangan.

**Quyi Qashqadaryo mintaqasida fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvi  
(2012 yil 1 yanvar holati)**

T/r	Qishloq tumanlari	jami fermer xo'jaliklar soni	fermer xo'jaliklarning ixtisoslashuvi:									
			paxta va g'allachilik		chorvachilik		sabzavot va polizchilik		bog'dorchilik va uzumchilik		boshqa tarmoqlar	
			soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
1	Kasbi	510	463	90,8	10	2,0	8	1,7	25	5,0	4	0,5
2	Koson	592	547	92,5	32	5,4	-	-	10	1,8	3	0,3
3	Mirishkor	755	704	93,1	12	1,6	4	0,5	34	4,6	1	0,2
4	Muborak	298	233	78,1	29	9,7	9	3,1	27	9,1	-	-
5	Nishon	638	519	81,4	19	3,0	18	2,8	75	11,8	7	1,0
6	Qarshi	470	401	85,2	20	4,2	3	0,6	45	9,8	1	0,2
<b>Quyi Qashqadaryo bo'yicha</b>		<b>3263</b>	<b>2866</b>	<b>87,9</b>	<b>122</b>	<b>3,7</b>	<b>42</b>	<b>1,3</b>	<b>217</b>	<b>6,6</b>	<b>16</b>	<b>0,5</b>
<b>Viloyat bo'yicha</b>		<b>7139</b>	<b>5355</b>	<b>75,0</b>	<b>414</b>	<b>5,8</b>	<b>164</b>	<b>2,3</b>	<b>1135</b>	<b>15,9</b>	<b>71</b>	<b>1,0</b>

Jadval viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

**Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida foydalanadigan yer maydonining 2011 yilda tumanlar boyicha taqsimlanishi.(ming ga)**

<b>Tumanlar</b>	<b>Umumiy maydoni</b>	<b>Qishloq xo'jaligi yer maydoni</b>	<b>Umumiy maydonga nisbatan %</b>
Viloyat boyicha jami	2856,8	2508,3	87,8
Qarshi	91,7	86,1	93,9
Kasbi	73,5	70,9	96,5
Koson	187,2	182,4	97,4
Mirishkor	312,5	304,6	97,7
Nishon	206,0	187,4	91,0
Muborak	307,0	302,6	98,6
Quyi Qashqadaryo	1177,9	1134	95,85
Viloyatga nisb.% hisobida	41,0	45	109

Manba: Qashqadaryo viloyati yer resurslari boshqarmasining hisoboti asosida tuzilgan.

**Qashqadaryo viloyati tumanlarida paxta ekin maydonlari, yalpi hosili va  
hosildorlik ko'rsatkichlari  
(2011 yil)**

<b>№</b>	<b>Tumanlar</b>	<b>Ekin maydonlari, ming ga</b>	<b>Yalpi hosil m tonna</b>	<b>Hosildorlik ts/ga</b>
	Viloyat bo'yicha:	174,8	461,3	26,4
1.	Qarshi	16,4	48,9	29,8
2.	Kasbi	25,3	67,2	26,5
3.	Koson	27,9	75,5	27,0
4.	Mirishkor	23,0	53,5	23,2
5.	Nishon	21,5	47,0	22,0
6.	Muborak	11,1	24,7	22,2
	Quyida Qashqadaryo	125,2	316,8	25,1
	Viloyatga nisb.% hisobida	70,0	70,0	95,0

Jadval. Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**Qashqadaryo viloyati tumanlarida g'alla ekin maydonlari, yalpi hosili va  
hosildorlik ko'rsatkichlari (2011 yil)**

<b>№</b>	<b>Tumanlar</b>	<b>Ekin maydoni, ming ga</b>	<b>Yalpi hosil, tonna</b>	<b>Hosildorlik, ts/ga</b>
	Viloyat bo'yicha:	205,8	816600	39,7
1.	Qarshi	15,6	79129	50,7
2.	Kasbi	15,8	78641	49,7
3.	Koson	19,3	97951	50,7
4.	Mirishkor	24,2	124445	51,4
5.	Nishon	21,1	110746	54,4
6.	Muborak	10,9	45418	41,6
	Quyida Qashqadaryo	106,9	536330	49,75
	Viloyatga nisb.% hisobida	52,0	66,0	125

Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

**Qashqadaryo viloyati tumanlarida kartoshka, sabzavot, poliz  
ekinlarining yalpi hosili ko'rsatkichlari (2011 yil)**

<b>№</b>	<b>Tumanlar</b>	<b>Kartoshka tonna</b>	<b>Sabzavot tonna</b>	<b>Poliz tonna</b>
	Viloyat bo'yicha:	64700	218500	56500
1.	Qarshi	1412	18559	3571
2.	Kasbi	1294	8130	3372
3.	Koson	398	18928	9413
4.	Mirishkor	2025	5722	2545
5.	Nishon	620	6206	334
6.	Muborak	226	3986	2804
	Quyida Qashqadaryo	5975	61531	25016
	Viloyatga nisb.% hisobida	9,0	28,0	44,0

Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

## MUNDARIJA

**KIRISH**.....

**I BOB. QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGI  
IXTISOSLASHUVI VA HUDUDIY TARKIBI**.....

1.1. Yer fondi va uning tarkibi.....

1.2. Qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi va rivojlanishining asosiy omillari.....

1.3. Qashqadaryo viloyati dehqonchilik tarmog'i rivojlanishining  
hududiy jihatlari.....

**II BOB. QUIYI QASHQADARYO MINTAQASI QISHLOQ XO'JALIGI  
IXTISOSLASHUVI VA RIVOJLANISHI**.....

2.1. Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi va u bilan bog'liq muammolar.....

2.2. Qashqadaryo viloyatini qishloq xo'jalik nuqtai nazardan rayonlashtirish  
masalalari.....

2.3. Quyi Qashqadaryo mintaqasi sug'oriladigan yerlaridan foydalanishning o'ziga  
xos xususiyatlari .....

2.4. Quyi Qashqadaryo mintaqasida dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirish  
masalalari.....

**XULOSA**.....

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**.....

**ILOVALAR**.....